

**Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги
томонидан 2019 йил давомида расмий веб-сайт “ima.uz” да эълон
қилинган тадбирлар ҳақида
МАЪЛУМОТНОМА**

2019 йил ҳисобот даврида Адлия вазирлиги ҳузуридаги Интеллектуал мулк агентлиги томонидан жамиятда интеллектуал мулк объектларига бўлган ҳуқуққа нисбатан ҳурмат билан қараш маданиятини шакллантиришга қаратилган тадбирлар режасига мувофиқ ҳудудий адлия бошқармалари билан ҳамкорликда 30 дан ортиқ ҳуқуқий тарғибот ва ташвиқот тадбирлари ўтказилди.

Шунингдек, Республикамиз олий таълим муассасалари билан ҳамкорликда интеллектуал мулк ҳуқуқи тушунчаси, қонунчилик нормалари ҳамда интеллектуал мулк объектларини патентлаш жараёни ҳақида маълумот бериш мақсадида 20 дан ортиқ семинар тренинглар ўтказилди.

Агентлик раҳбарияти томонидан интеллектуал мулк объектлари билан доир масалаларда вилоятларда аҳоли билан сайёр учрашувлар ташкил этилди.

Техникавий ижодни рағбатлантириш, инновацион фаолликни ошириш, янги техника, технология ва рақобатбардош маҳсулотларни яратишга қўмаклашиш ҳамда ёшларнинг инновацион ишланмаларини қўллаб-қувватлаш мақсадида Республика миқёсида Энг яхши интеллектуал мулк объектлари учун “Best IP - 2019” танлови ўтказилиб совриндорлар тақдирланди.

Айниқса, интеллектуал мулк объектларини патентлаган муаллифларнинг яратмалари ҳақида Агентлик веб-сайтида мунтазам ахборот ва мақолалар бериб борилди.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 ноябрдаги ПҚ-3365-сон Қарори билан тасдиқланган “2017-2021 йилларда илмий-тадқиқот муассасаларининг инфраструктурасини мустаҳкамлаш ва инновацион фаолиятини ривожлантириш бўйича комплекс чора-тадбирлар Дастури”га мувофиқ олий таълим муассасалари қошида 20 та Технологиялар ва инновацияларни қўллаб қувватлаш марказлари ташкил этилди.

Халқаро экспертлар билан тажриба алмашиш мақсадида турли мавзулардан учрашув, семинар ва конференциялар ўтказилди.

Агентлик фаолияти билан яқиндан таништириш мақсадида талабалар, талабнома топширувчилар ва қизиқувчилар учун очик эшиклар куни ташкил этилди. Қуйида Агентлик веб-сайтида эълон қилинган ахборотлар илова қилинади.

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1210/>

Eng yaxshi intellektual mulk ob'yektlari uchun "Best IP - 2019" tanlovi e'lon qilinadi

O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi Respublikada eng yaxshi intellektual mulk ob'yektlarini aniqlash va huquq egalari mukofotlash orqali ixtirochilik va ilmiy-texnikaviy ijodni rag'batlantirish, innovatsion faollikni oshirish, yangi texnika, texnologiya va raqobatbardosh mahsulotlarni yaratishga ko'maklashish hamda yoshlarning innovatsion ishlanmalarini qo'llab-quvvatlash maqsadida "Eng yaxshi ixtiro", "Eng yaxshi foydali model", "Eng yaxshi sanoat namunasi", "Eng yaxshi seleksiya yutug'i", "Eng yaxshi EHM uchun dastur va ma'lumotlar bazasi" hamda "Yoshlar o'rtasida eng yaxshi EHM uchun dastur muallifi" nominatsiyalari bo'yicha "Best IP - 2019" tanlovini e'lon qiladi.

Tanlovga so'nggi 3 yil (2016-2018 yillar) davomida muhofaza hujjatlari olingan va amalda saqlab turilgan ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari hamda mahalliy mualliflar (huquq egalari) tomonidan yaratilgan EHM uchun yaratilgan dasturlar va ma'lumotlar bazalari hamda seleksiya yutuqlari qabul qilinadi.

Tanlovning yoshlar o'rtasidagi eng yaxshi EHM uchun dastur muallifi nominatsiyasi yo'nalishi bo'yicha 40 yoshga to'lmagan o'zining EHM uchun yaratilgan dasturiga ega bo'lgan shaxslar hujjatlarini topshirishi mumkin.

Ilgari o'tkazilgan tanlovlarda mukofotli o'rinlarni egallagan mualliflar yoki huquq egalari arizalari Nizomga muvofiq o'tkaziladigan tanlovda ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi.

Tanlovda ishtirok etish uchun hujjatlar 2019 yilning 10 yanvaridan 2019 yil 12 apreligacha qabul qilinadi. Tanlov g'oliblari "26 aprel - Xalqaro intellektual mulk kuni" arafasida e'lon qilinadi.

Tanlov ishtirokchilari quyidagi hujjatlarni taqdim qiladilar:

- Nizomning 1-ilovasiga muvofiq tanlovda ishtirok etish uchun ariza;
- muhofaza hujjati (lari)ning nusxasi;
- ob'yektdan foydalanish dalolatnomasi yoki ob'yektni foydalanishga tayyorligi to'g'risidagi boshqa hujjat (tajriba yoki sanoat sinovi dalolatnomasi, litsenziya shartnomasi, tadbiq qilish dalolatnomasi va sh.k.)

Tanlovga talabnomalar ish kunlari soat 9:00dan 17:00gacha quyidagi manzil bo'yicha qabul qilinadi:

100000, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 59-uy.

Hujjatlar "Eng yaxshi intellektual mulk ob'yektlari uchun "Best IP - 2019" tanloviga" deb ko'rsatilgan holda topshirilishi lozim.

Shuningdek, tanlovga hujjatlar elektron tarzda tanlov.ima.uz elektron manzilida ham qabul qilinadi.

Ma'lumot uchun telefonlar: 0 371 232-50-32, 0 371 232-50-40.

Ko'rib chiqish uchun qabul qilingan ariza va hujjatlar tanlov ishtirokchilariga qaytarilmaydi va ularga taqrizlar berilmaydi.

Tanlov to'g'risidagi batafsil ma'lumotni Agentlik veb-saytidan olishingiz mumkin.

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1208/>

Xronik alkogolizmni davolash uchun farmasevtik kompozitsiya ishlab chiqildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik S.Yu.Yunusov nomli O'simlik moddalari kimyosi institutining bir qator mutaxassisleri tomonidan xronik alkogolizmni davolash uchun farmasevtik kompozitsiya ishlab chiqildi.

Ushbu ixtironing vazifasi alkogolga nisbatan patologik moyillikni turg'un bartaraf etadigan, alkogol man qilinganida, abstinensiya hodisalarini yengillashtiradigan, simptomatik terapiya uchun har xil farmakoterapevtik guruhlarga mansub preparatlarning xususiyatlarini (sedativ-trankvilizatsiyalovchi, analgetik, nootrop) o'zida jamlangan yangi preparat yaratishdan iborat.

Mualliflar guruhiga ushbu yaratilgan ixtirolari uchun IAP 05700 raqamli patent berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1213/>

Onkoepidemiologik monitoring dasturi yaratildi

Tibbiyot xodimlari Almuxamedova Barno, Alieva Dilfuza, Sabirova Diloromlar tomonidan onkoepidemiologik monitoring uchun mo'ljallangan dastur yaratildi.

Dastur bemorlarning tekshiruv ma'lumotlarini, shu jumladan, ultratovush tekshiruvlari natijalarini to'plash, kiritish va saqlash hamda zaruriy davolanishni tanlash kabi funksional imkoniyatlarga ega.

Mualliflar tomonidan kombinatsiyalangan radikal davolash dasturlaridan foydalangan holda maxsus terapiya usullari takomillashtirildi, onkologik epidemiologik vaziyatni tibbiy va statistik tahlil qilish tamoyillaridan foydalanib bachadon bo'yni saratoni xavfining oldini olish, erta tashhishlash va prognoz qilish uchun optimal usullar ishlab chiqildi. Ushbu dastur amaliy tibbiyotda bemorlar shifoxonaga yotqizilganda va davolash jarayonida ishlatilishi mumkin.

Dastur mualliflariga DGU 05750-raqamli guvohnoma berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1214/>

Guliston Davlat universiteti qoshida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash Markazi tashkil etildi

Sirdaryo viloyatida Guliston Davlat universiteti rektori bilan Intellektual mulk agentligi va Intellektual mulk agentligi "IP-CENTER" o'quv markazi rahbarlari ishtirokida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Sirdaryo viloyatining, jumladan universitetning ilmiy-tadqiqotchilik va ixtirochilik faolligining hozirgi holati, shuningdek regionda Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash Markazi (Markaz) tashkil etish masalalari muhokama qilindi.

Guliston Davlat universiteti va Intellektual mulk agentligi "IP-CENTER" - intellektual mulk sohasidagi kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv markazi bilan hamkorlikda universitet qoshida Markaz tashkil etildi. Shuningdek, universitet mutaxassislari uchun "Patent qidiruvlari o'tkazish" mavzusida ilmiy-amaliy seminar tashkil etildi. Seminarda Agentlik mutaxassislari tomonidan seminar mavzusiga oid ma'ruzalar qilindi, shuningdek IMA, RF, AQSh va boshqa xalqaro tashkilotlar (EPI, BIMT) bazalari orqali patent qidiruvlari o'tkazish bo'yicha amaliy mashg'ulotlar o'tkazildi.

O'z navbatida qatnashchilar tomonidan ixtirolar va foydali modellarga talabnoma tuzishda yuzaga keladigan savollar yuzasidan to'laqonli javoblar berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1220/>

Xorazm Ma'mun akademiyasi seleksioner olimlari tomonidan yaratilgan "Niyat" g'o'za naviga patent berildi

Xorazm Ma'mun akademiyasining seleksioner olimlari tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida g'o'zaning yangi "Niyat" navi yaratilgan edi. Ushbu nav tolasining texnologik ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Agrosanoat majmui va oziq-ovqat xavfsizligi ta'minlanishi ustidan nazorat qilish inspeksiyasi qoshidagi "Agrosanoat majmuida xizmat ko'rsatish markazi" unitar korxonasi laboratoriyasida tahlil qilindi.

Laboratoriyaga 2018 yilda yetishtirilgan paxta hosilidan tola namunalari yetkazib berildi. Paxta tolasini namunalari sifat ko'rsatkichlari laboratoriyada HVI tizimi orqali sinovdan o'tkazildi.

Tahlillarning ko'rsatishicha, ushbu yaratilgan yangi navlar tolasining sifati unga sanoat ishlab chiqarishi tomonidan qo'yilgan talablarga javob beradi. Niyat

g'o'za navini 2019 yilda Xorazm viloyatining ayrim tumanlarida sinov sharti bilan ekishga ruxsat berildi.

Intellectual mulk agentligi tomonidan Ma'mun akademiyasiga NAP 00205-raqamli o'simlik navi uchun patent berildi, ushbu nav mualliflari D. Akkujin, Sh. Kadirov, I. Abdullaev, F. Jumaniyazov, U. Abduraximov, R. Masharipova, B. O'rinovlardan iborat.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1222/>

Koreya Respublikasi ixtirochi ayollar assosiasiyasi (KWIA) vakillari bilan uchrashuv

Intellectual mulk agentligi va O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi hamkorligida Koreya Respublikasi ixtirochi ayollar assosiasiyasi (KWIA) vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Mazkur uchrashuv Toshkent shahridagi INXA universitetida respublikamizning ixtirochi, tadbirkor va olim ayollari, Intellectual mulk agentligi rahbarlari va mutaxassislari, Koreya Respublikasi ixtirochi ayollar assosiasiyasi (KWIA) vakillari ishtirokida bo'lib o'tdi.

Intellectual mulk agentligi rahbari tomonidan tadbir qatnashchilariga O'zbekiston Respublikasida intellectual mulk Agentlik faoliyati, intellectual mulk ob'yektlariga huquqiy muhofaza taqdim etish bo'yicha olib borilayotgan ishlar, o'zbek xotin-qizlarining ixtirochilik sohasiga qo'shayotgan hissasi to'g'risida ma'lumot berildi.

Koreya Respublikasi ixtirochi ayollar assosiasiyasi (KWIA) prezidenti Yun Mung Xi xonim tashkillashtirilgan uchrashuv uchun minnatdorchilik bildirib, o'zbek olim, tadbirkor ayollarning erishayotgan yutuqlarini yuqori baholadi va kelgusida ushbu sa'y-harakatlar natijasi ularni xalqaro maydonga olib chiqishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Axborot xizmati

Miniatyuralar ensiklopediyasi ko'rinishida "Zulfiyaxonim qizlari" dasturi ishlab chiqildi

Ushbu dastur o'zbek tilida 12-18 yoshli qizlar uchun miniatyuralar ensiklopediyasi ko'rinishida ishlab chiqilgan va turli to'garaklarda, masalan "Orasta qizlar"da qo'llanilishi mumkin.

Dastur quyidagi funksional imkoniyatlarga ega:

- 1) "Pazanda" - o'zbek oshxonasining 100 ta reseptini o'z ichiga oladi;
- 2) "Xushsurat" o'z-o'zini parvarish qilish bo'yicha maslahatlar 12 ta bo'limda jamlangan;
- 3) "Uddaburon" - lotin alifbosidan kirill alifbosiga tarjima qilish va aksincha;
- 4) "Dilrabo" - musiqa asboblari bo'yicha qo'llanma;
- 5) "Shijoatli" sport turlari bo'yicha ma'lumot beradi;
- 6) "Zehnli" xorijiy tillar, informatika, adabiyot bo'limlaridan tuzilgan.

Muallif Tairova Muxabbatxonga "Zulfiyaxonim qizlari" dasturi uchun DGU 05768-raqamli guvohnoma berildi.

Axborot xizmati

Buxoro viloyatida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab- quvvatlash Markazi tashkil etildi

22 yanvarda Intellektual mulk agentligi va Intellektual mulk agentligi "IP-CENTER" o'quv markazi hamda Buxoro muhandislik texnologiyalari instituti vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda Buxoro viloyatining ilmiy-tadqiqotchilik va ixtirochilik faolligining hozirgi holati, shuningdek regionda Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash Markazi (Markaz) tashkil etish masalalari muhokama qilindi. Uchrashuv natijasida institut qoshida Markaz tashkil etilishi bo'yicha kelishildi va hujjatlar imzolandi.

Shuningdek, "IP-CENTER" o'quv markazi Agentlik mutaxassislari tomonidan institut xodimlari uchun "O'zbekistonda intellektual mulk ob'yektlari muhofazasi" mavzusida seminar tashkil etildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1236/>

Rossiyalik ixtirochilarga "Katalizator to'rlari uchun platinali qotishma" ixtirosi uchun patent berildi

"V.N.Gulidov nomidagi Krasnoyarsk rangli metallar zavodi" ochiq aksiyadorlik jamiyati mutaxassisleri tomonidan kimyo sanoatida qo'llanadigan katalizatorli to'rlar uchun mo'ljallangan platinali qotishma ixtiro qilindi.

Ushbu ixtironing vazifasi barqaror mexanik xususiyatlarga ega bo'lgan va yuqori katalitik faollikni saqlagan holda undan tayyorlangan katalitik paketlarning uzoq ishlatilishini ta'minlaydigan katalizator to'rlari uchun platinali qotishma tarkibini ishlab chiqishdan iborat.

Rossiyalik ixtirochilar Yefimov Valeriy va Mamonov Sergeylarga Agentlik tomonidan IAP 05695 raqamli patent berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1238/>

"Rasmiy axborotnoma" byulletenining 2019 yil 1-soni nashrdan chiqdi

"Rasmiy axborotnoma" ning 2019 yil 1-sonida quyidagi ma'lumotlar:

- 63 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;
- Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan 316 ta intellektual mulk ob'yektlari, jumladan, 24 ta ixtirolar, 7 ta foydali modellar, 11 ta sanoat namunalari, 148 ta tovar belgilari, 118 ta EHM uchun dasturlar, 2 ta ma'lumotlar bazalari, seleksiya bo'limda o'simlik navlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan 2 ta talabnoma, o'simlik navlariga seleksiya yutuqlarining nomlariga 2 ta talabnoma, o'simliklar navlari va hayvonlar zotlarining Davlat reestrlari ro'yxatidan o'tkazilgan 4 ta o'simlik navlari haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Shuningdek,

- sanoat namunalari bo'yicha 1 ta, tovar belgilari bo'yicha 5 ta litsenziya shartnomalari;
- ixtirolar bo'yicha 1 ta, sanoat namunalari bo'yicha 1 ta, tovar belgilari bo'yicha 10 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

<http://baza.ima.uz/#newsletters>

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1239/>

Abiturientlarning otmlarga elektron hujjat topshirishlari uchun mo'ljallangan "UNIVERSITIES.UZ" dasturi yaratildi

Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti mutaxassislari tomonidan abiturientlarning otmlarga elektron hujjat topshirishlari uchun mo'ljallangan "UNIVERSITIES.UZ" dasturi yaratildi.

Dastur O'zbekistondagi barcha otmlar (manzillar, telefon raqamlari, fakultetlar, yo'nalishlar, propusklar va h.k.) haqida ma'lumot olish; foydalanuvchi uchun alohida akkaunt ochish va u istalgan vaqtda o'z hujjatlarini elektron shaklda yuborishi hamda sms-xabar orqali imtihon natijalarini bilishi kabi funksional imkoniyatlarga ega.

Shuningdek ushbu dastur orqali butun dunyo bo'yicha grantlar, stipendiyalar va yozgi maktablar haqida ma'lumotlarga ega bo'lish mumkin. Dastur mualliflari Isomitdinov Aloviddin va Joldibaev Nurlanga DGU 05826-raqamli guvohnoma berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1242/>

Butunjahon Intellektual mulk tashkilotining "Eng yaxshi ixtiro" medali va "Intellektual mulk sohasida eng yaxshi korxonada" mukofotiga tanlov e'lon qilinadi

Butunjahon Intellektual mulk tashkilotining "Eng yaxshi ixtiro" medali va "Intellektual mulk sohasida eng yaxshi korxonada" mukofoti oliy kategoriyali maxsus mukofot bo'lib hisoblanib, ixtirochilik, ijodkorlik va innovasion faoliyatni rag'batlantirish, ixtirochilar, mualliflar imidjini yaratish va intellektual mulkni o'z faoliyatida effektiv foydalanuvchi milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida BIMT tomonidan ta'sis qilingan.

Tanlovda ishtirok etish uchun 2014 yildan 2018 yilgacha muhofaza hujjatlari (ixtirolar yoki foydali modellarga patentlar, tovar belgilariga guvohnomalar) olgan talabnomalar qatnashishi mumkin.

Ilgari o'tkazilgan tanlovlarda mukofotli o'rinlarni egallagan talabnomalar ushbu tanlovda ko'rib chiqish uchun qabul qilinmaydi Tanlov g'oliblari "26 aprel - Xalqaro intellektual mulk kuni" arafasida e'lon qilinadi. Tanlovda ishtirok etish uchun talabnomalar "Butunjahon Intellektual mulk tashkilotining "Eng yaxshi ixtiro" medali va "Intellektual mulk sohasida eng yaxshi

korxonada mukofotiga" deb ko'rsatilgan holda 2019 yilning 20 fevralidan 20 martgacha quyidagi manzil bo'yicha qabul qilinadi: 100000, Toshkent shahri, Mustaqillik shoh ko'chasi, 59-uy.

Shuningdek, talabnomalar akt@ima.uz elektron pochta orqali ham yuborilishi mumkin.

Ma'lumot uchun telefonlar: 0 371 232-50-32, 0 371 232-50-27. Ko'rib chiqish uchun qabul qilingan ariza va hujjatlar tanlov ishtirokchilariga qaytarilmaydi va ularga taqrizlar berilmaydi.

Tanlov nizomi (rus tilida). [Положение конкурса - 2019 года \(для сайта\).doc](#)

Tanlovda ishtirok etish uchun [ariza namunasi](#).

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1244/>

“Eltexsanoat” AK xodimlari uchun “O'zbekiston Respublikasida Intellektual mulk ob'yektlari muhofazasi” mavzusidagi seminar

2019 yil 19 fevralda Agentlikda “Elektrotexnika sanoatining eksport salohiyatini yanada rivojlantirish va oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-4090-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Agentlik mutaxassislar tomonidan “Eltexsanoat” AK xodimlari uchun “O'zbekiston Respublikasida Intellektual mulk ob'yektlari muhofazasi” mavzusida seminar o'tkazildi.

Seminar ishtirokchilari Agentlik mutaxassislariga tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va hammaga ma'lum bo'lgan belgilarning O'zbekiston Respublikasida muhofaza qilinishiga oid o'zlarini qiziqtirgan savollari bilan murojaat qilib kerakli javoblarni oldilar, shuningdek o'z taklif-mulohazalarini bildirdilar.

Tadbir so'ngida yig'ilish qatnashchilari bunday tadbirlarni muntazam ravishda o'tkazib borish zarurligini takidlab o'tdilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1245/>

Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifati monitoringini elektron boshqarish tizimi yaratildi

Dastur oliy ta'lim muassasalari reytingini ta'lim sifati indikatorlari (ilmiy faoliyat, o'qitish sifati, talabalar bilimi va bitiruvchilar sifati, moddiy-texnik ta'minot, AKT ni qo'llash va boshqalar) asosida monitoring qilish uchun mo'ljallangan.

Elektron boshqaruvning kompleks tizimini joriy qilish asosida oliy ta'lim tizimida ichki (oliy ta'lim muassasasining o'zini-o'zi o'rganish jarayoni natijalari) va tashqi (attestasiya va akkreditasiyadan o'tkazish natijalari) nazorat monitoring ko'rsatkichlarining aniqlik darajasini oshirish mumkin.

Dastur funksional imkoniyatlari: har bir foydalanuvchi o'z shaxsiy kabinetiga ega; foydalanuvchi ierarxiyasi monitoringi doimiy kuzatib boriladi va tahlil natijalari ko'rsatiladi; parametrlar asosida kiritilgan ma'lumot bazasi foydalanuvchilar kesimida ierarxik ko'rinishda shakllantiriladi; oliy ta'lim muassasasi bo'yicha indikator ko'rsatkichlarni asoslovchi ma'lumotlar bazasi shakllantiriladi.

Dastur muallifi Xo'jaev Alijonga DGU 05861 raqamli guvohnoma berildi.

Axborot xizmati

<http://www.ima.uz/uz/information/info/news/1248/>

"Jahon adabiyoti durdonalari: o'zbek tiliga tarjima qilish va chop etishdagi yutuqlar, muammolar va istiqboldagi rejalar" mavzusida matbuot anjumani

2019 yil 26 fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administrasiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikasiyalar agentligida "Jahon adabiyoti durdonalari: o'zbek tiliga tarjima qilish va chop etishdagi yutuqlar, muammolar va istiqboldagi rejalar" mavzusidagi Matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Tadbirda O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi rahbar va mas'ul xodimlari, hamda nashriyotlar bosh muharrirlari va tarjimonlar ishtirok etdilar. Xabaringiz bor, oxirgi 3 oy mobaynida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan mualliflik huquqi himoyasiga oid 3 ta Xalqaro shartnomaga qo'shilish to'g'risida qonunlar qabul qilindi. Jumladan, 2018 yil 26 dekabrda "Fonogramma tayyorlovchilarning manfaatlarini ularning fonogrammalarini noqonuniy takrorlanishidan muhofaza qilish to'g'risidagi Jeneva konvensiyasi"ga qo'shilish

to'g'risida (O'RQ-511-sonli), 2019 yil 16 fevralda "Butunjahon intellektual mulk tashkilotining ijrolar va fonogrammalar bo'yicha shartnomasi"ga (O'RQ-519-sonli) va "Butunjahon Intellektual mulk tashkilotining mualliflik huquqi bo'yicha shartnomasi"ga (O'RQ-520-sonli) O'zbekiston Respublikasining qo'shilishi to'g'risidagi qonunlari qabul qilindi.

Matbuot anjumanining maqsadi aynan san'at, adabiy va badiiy asarlar mualliflari, ijrochilar va ularning fonogrammalarni takrorlash borasidagi huquqlarini muhofaza qilishda, shuningdek jahon adabiyoti namunalarini tarjima qilishda ushbu qonunlarning ahamiyati to'g'risida kengroq ma'lumot berish, shuningdek, O'zbekiston Respublikasining yuqoridagi halqaro shartnomalarga qo'shilishi munosabati bilan mamlakatimiz o'z zimmasiga olgan majburiyatlar mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka yetkazishdan iborat bo'ldi.

Tadbir ishtirokchilari tomonidan jahon adabiyoti namunalari, hamda o'zbek adabiyoti asarlarini tarjima qilish, ularni tarqatish huquqlari to'g'risida Xalqaro shartnomalar qoidalari, ularga rioya qilish tartiblari to'g'risidagi masalalar qizg'in muhokama etildi.

Axborot xizmati

<http://www.ima.uz/uz/information/info/news/1250/>

“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 2-soni nashrdan chiqdi

“Rasmiy axborotnoma” ning 2019 yil 2-sonida quyidagi ma'lumotlar:

- 53 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;
- Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan 272 ta intellektual mulk ob'yektlari, jumladan, 15 ta ixtirolar, 4 ta foydali modellar, 14 ta sanoat namunalari, 131 ta tovar belgilari, 101 ta EHM uchun dasturlar, 1 ta ma'lumotlar bazalari, seleksiya bo'limda o'simlik navlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan 3 ta talabnoma, o'simlik navlariga seleksiya yutuqlarining nomlariga 3 ta talabnoma haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Shuningdek,

- ixtirolar bo'yicha 3 ta, tovar belgilari bo'yicha 18 ta litsenziya shartnomalari;
- tovar belgilari bo'yicha 22 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

<http://baza.ima.uz/#newsletters>

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1254/>

Agentlik delegatsiyasining Qozog'iston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi "Intellectual mulk milliy instituti" Respublika davlat korxonasi ("IMMI" RDK) xizmat safari

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi mutaxassislari Qozog'iston Respublikasida "IMMI" RDK da xizmat safarida bo'lib qaytdilar. Ushbu safarning asosiy maqsadi Qozog'iston intellektual mulk tizimi, hamda, intellektual mulk muhofazasi bo'yicha olib borilayotgan ishlar bilan tanishishdan iborat bo'ldi.

Uchrashuv vaqtida "IMMI" RDK rahbariyati va mutaxassislari, shuningdek Qozog'iston Respublikasi bojxona xizmati ma'sul vakili (Moliya vazirligining Davlat daromadlari qo'mitasi bojxona operatsiyalari monitoringi boshqarmasi) intellektual mulk huquqiy muhofazasi bo'yicha olib borilayotgan ishlar va rejalar to'g'risida ma'lumot berdilar.

Shuningdek, Qozog'istonlik mutaxassislar mamlakat bojxona xizmati tizimida davlat reestrini yuritish, kontrafakt tovarlarni aniqlash, ularni chegaradan o'tib, mamlakat hududiga kirishiga yo'l qo'ymaslik borasida qo'llanayotgan chora-tadbirlar xususida atroflicha ma'lumot berib o'tdilar.

"IMMI" RDK rahbariyati O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshidagi Intellectual mulk agentligi bilan hamkorlikni rivojlantirish tarafdori va tayyorligini alohida ta'kidlab o'tdi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1256/>

O'zbekistonda ilk marotaba "Tashkent Law Spring" Xalqaro yuridik forumi bo'lib o'tadi

O'zbekiston Respublikasining poytaxti Toshkent shahrida 25-27 aprel kunlari "Tashkent Law Spring" Xalqaro yuridik forumi bo'lib o'tadi. Forum doirasida davlat idoralari, xalqaro tashkilotlar, O'zbekistonning va dunyoning yetakchi yuridik va konsalting firmalari vakillari, advokatlar, yurisprudensiya va xalqaro aloqalar sohasidagi taniqli olimlar, mutaxassislar va ekspertlar huquqdagi eng so'nggi tendensiyalarni muhokama qilish, zamonaviy yuridik fan va amaliyotning dolzarb masalalari yuzasidan fikr almashish uchun yig'iladilar.

2019-yil O'zbekistonda "Faol investitsiyalar va ijtimoiy rivojlanish yili" deb e'lon qilinganini inobatga olib, Forumda Hukumat va biznes tuzilmalari,

dunyoning yirik kompaniyalari vakillari uchun investitsion hamkorlikning istiqbolli yoʻnalishlarini muhokama qilish imkoniyati ham yaratiladi.

Forum toʻgʻrisida batafsil <http://tashkentlawspring.uz/ru> saytida tanishishingiz mumkin.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1262/>

Pnevmatik kardiodilatator ishlab chiqildi

Tibbiyot olimlari tomonidan kardiospazmning hamda III-IV darajali kardiya axialaziyaning oʻtkazib yuborilgan shakllarida kardioezofageal oraliqning atravmatik dilatatsiyasi (kengaytirilishi)ni amalga oshirish imkonini beruvchi pnevmatik kardiodilatator konstruksiyasi ishlab chiqildi.

Kardiodilatator tarkibiga silikondan yasalgan hamda kanali havo uzatish uchun xizmat qiladigan naycha koʻrinishidagi zond, ushbu naychaga ulangan, gantel shakliga ega boʻlgan hamda kengayadigan koʻp qavatli ballon kiradi, bunda balloning ichki va tashqi qatlamlari silikondan, oʻrtadagi armaturalaydigan qatlam esa qalin sintetik matodan bajarilgan. Zond uchi tiqin koʻrinishidagi rentgenokonstrast tamgʻa bilan yopilgan. Zond havo uzatish kanalida joylashtirish uchun moʻljallangan metall sim bilan taʼminlangan. Simning bir uchi rentgenokonstrast tamgʻaga tiralib turadi, boshqa uchi esa zondan tashqariga chiqib turadi.

Mualliflar Nizamxodjayev Zayniddin, Ligay Ruslan, Shagazatov Doniyor va Soy Aleksey, Nigmatullin Elnarlarga yaratgan qurilmalari uchun FAP 01357 raqamli patent oldilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1263/>

"Oʻzbekiston Respublikasida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash markazlarini rivojlantirish va patent maʼlumotlar bazalaridan foydalanish" mavzusida seminar-trening

26-26 mart kunlari Oʻzbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi (Agentlik) bilan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) hamkorligida "Oʻzbekiston Respublikasida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qoʻllab-quvvatlash markazlarini rivojlantirish va patent maʼlumotlar bazalaridan foydalanish" mavzusida seminar-trening oʻtkazildi.

Seminar-treningda xorijlik mutaxassislar BIMTning Global infratuzilmalar sektori Maʼlumotlar va bilimlardan foydalanish bshlimi, Texnologiyalar va

innovasiyalarni qo'llab-quvvatlash seksiyasi dasturlar rahbari Mussadik Xusseyn, Rospatentning katta ilmiy xodimi Voysexovskaya Zoya Eduardovna, Rospatent SMFI "Butunrossiya patent-texnika kutubxonasi" mudiri Kuznesova Tatyana Viktorovna, shuningdek Agentlik mutaxassisleri o'z ma'ruzalari bilan qatnashdilar.

Tadbirda "TIQQMning BIMT resurslaridan foydalanish imkoniyatlari", "ASPI" va "Research4Life dasturlariga kirish", "Qidiruv uchun Xalqaro patent tasnifidan foydalanish", "Patent qidiruvi vositalari va strategiyalari", "Akademik va tadqiqot muassasalarida bilimlarni berish: IM sohasidagi siyosatning roli" va "O'zbekiston Respublikasida texnologiyalar va innovasiyalar markazlarini tashkil qilish bo'yicha loyihani amalga oshirish: natijalar va istiqbollari" mavzulari keng yoritildi.

Dunyoning yetakchi rivojlangan mamlakatlari tajribasidan ma'lumki, yuksalishlarni ixtirochilik (patent) tizimisiz tasavvur qilish qiyin. Chunki aynan ixtirochilik tizimi iqtisodiy rivojlanishning qudratli qurolidir. BIMT ilmiy-tadqiqotlar natijadorligini oshirish va yaratuvchanlik faoliyatini rag'batlantirish maqsadida rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan, O'zbekistonda ham "Texnologiyalar va innovasiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlari" (TIQQM) - Technology and Innovation Support Centers (TISC) ochish siyosatini olib bormoqda.

Bugungi kunda dunyoda 642 ta, jumladan Rossiya Federasiyasida 170 ta TIQQM faoliyat olib bormoqda. Aynan yuqoridagi masala doirasida 2017 yil 6 oktyabrda Agentlik va BIMT o'rtasida hamkorlik Memorandumi imzolangan. Agentlik o'z faoliyati samaradorligi va natijadorligini oshirish bo'yicha qator vazifalar qatorida texnologiyalar va innovasiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlarini tashkil etish, mamlakatimizning chet eldagi diplomatik vakolatxonalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish ishlarini ham izchil amalga oshirib kelmoqda.

Ushbu vazifalarni bajarish hamda sohalar ta'lim, fan va ishlab chiqarishi integrasiyalashuvini chuqurlashtirish, innovasion va investision jarayonlarni yanada jadallashtirish maqsadida, shuningdek Agentlik bilan BIMT Memorandumi doirasida hozirgi kunda Respublikamizda 12 ta TIQQM faoliyati yo'lga qo'yildi va ular sonini tizimli oshirish ishlari davom etmoqda.

Seminar-trening yakunida ishtirokchilar uchun "O'zbekiston Respublikasida TIQQM tarmog'ini yanada rivojlantirish" mavzusida davra suhbatini bo'lib o'tdi, unda O'zbekiston Respublikasida TIQQM loyihasi amalga oshirish muhokama qilindi.

Seminar-trening mazkur tadbirda qatnashgan Respublikamizdagi markazlar mutaxassisleri uchun juda foydali bo'ldi va ularni qiziqtirgan masalalar bo'yicha fikrlar bildirildi.

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1266/>

“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 3-soni nashrdan chiqdi

“Rasmiy axborotnoma” ning 2019 yil 3-sonida quyidagi ma'lumotlar:

- 47 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;
- Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan 355 ta intellektual mulk ob'yektlari, jumladan, 22 ta ixtirolar, 7 ta foydali modellar, 15 ta sanoat namunalari, 214 ta tovar belgilari, 95 ta EHM uchun dasturlar, seleksiya bo'limda o'simlik navlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan 1 ta talabnoma, o'simlik navlariga seleksiya yutuqlarining nomlariga 1 ta talabnoma haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Shuningdek,

- ixtirolar bo'yicha 3 ta, tovar belgilari bo'yicha 12 ta, ma'lumotlar bazasi bo'yicha 1 ta litsenziya shartnomalari;
- ixtirolar bo'yicha 3 ta, tovar belgilari bo'yicha 18 ta, EHM uchun dasturlar bo'yicha 2 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

[“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 3-soni](#)

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1268/>

Yurak remodelingi rivojlanishi xavfini aniqlash usuli yaratildi

Respublika ixtisoslashtirilgan kardiologiya markazi aksiyadorlik jamiyati mutaxassisleri tomonidan yurak remodelingi rivojlanishi xavfini aniqlash usuli yaratildi.

Ushbu usulning vazifasi arterial gipertenziyali bemorlarda profilaktika chora-tadbirlarini olib borish va kelgusida asoratlardan xalos bo'lish imkonini beradigan tegishli terapevtik davoni belgilash, shuningdek bemorga terapiya muddatini qisqartirish va davolash samarasi bo'yicha ancha yuqori bo'lgan qo'shimcha dori effektini pasaytirish uchun xizmat qiladigan usulni ishlab chiqishdan iborat.

Usul orqali bemorda sistolik arterial bosim, tuzga ta'm sezuvchanlikning yuqori pog'onalari o'lchanadi, hamda osh tuzini iste'mol qilish koeffisienti va tana massasi indeksi hisoblanadi.

Ixtiro mualliflari Ravshan Kurbanov, Aleksandr Nagay va Gulnoz Xamidullaevalarga ushbu yaratgan usullari uchun IAP 05763 raqamli patent berildi.

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1272/>

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida mahorat darsi

Intellectual mulk agentligi bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining “Sanoat iqtisodiyoti” kafedrasida hamkorligida “O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulkni himoya qilish” mavzusida universitet talabalari hamda professor-o‘qituvchilar uchun mahorat darsi o‘tkazildi. Mahorat darsida Agentlik huzuridagi «IP-CENTER» o‘quv markazi bosh mutahassisi Abduljalil O‘rinboyev o‘z ma‘ruzasi bilan qatnashdi.

Mahorat darsida ixtirolarga, foydali modellarga va tovar belgilari muhofazasiga oid, hamda intellektual mulk sohasida uchraydigan muammoli masalalar echimlari to‘g‘risida ma‘lumotlar taqdim etildi. Tadbir ishtirokchilari mualliflik huquqi, sanoat mulki muhofazasi va intellektual mulk obe‘kti hisoblangan oshkor etilmaydigan ma‘lumotlar bilan bog‘liq barcha savollariga batafsil javob oldilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1274/>

"UzCourier" zudlik bilan yetkazish innovasion kurerlik xizmatining dasturiy ta'minoti yaratildi

Ushbu dastur O'zbekiston hududida foydalanish uchun mo'ljallangan hamda internet brauzerlarda, mobil qurilmalarda va Windows, Unix ga o'xshash Android va iOS kabi operasion tizimlarda ishlaydigan krossplatforma dasturiy mahsulotini ifodalaydi. Tizimning funksional imkoniyatlari: tizim sayti va mobil ilovalar orqali tovarlarni 2 tonnagacha yetkazib berish uchun on-line buyurtmalarni bajarish; ma'lum bir region uchun yetkazib berish, shuningdek regionlararo yetkazib berish, ya'ni territorial regionlar o'rtasida ham yetkazib berish; buyurtma beruvchi hamda yetkazib beruvchi kurerning to'g'ridan-to'g'ri aloqasi; piyoda, yengil mashinada, yuk mashinasida yetkazib berishni rasmiylashtirish; buyurtma holati haqida SMS xabarnomalari orqali mijozlar va kurerlarni o'z vaqtida ogohlantirish; mijozning shaxsiy kabineti orqali kurerlar reytingini va buyurtmani rasmiylashtirishda qaysi kurer tanlanganini, joriy va oldingi buyurtmalarni ko'rish, shuningdek, geografik xaritada on-line rejimda va ilgari bajarilgan buyurtmalardagi kurerlarning harakatlanish yo'lini ko'rish.

Dastur muallifi Ulug'bek Mamadalievga DGU 06034-raqamli guvohnoma berildi.

Axborot xizmati

Xalqaro kitob va mualliflik huquqi kuni va Xalqaro intellektual mulk kuniga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi

2019 yil 22 aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan Milliy Matbuot markazida respublikamiz OAV uchun Xalqaro kitob va mualliflik huquqi kuni (23 aprel) va Xalqaro intellektual mulk kuniga (26 aprel) bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi. Anjumanda Agentlik mutaxassisleri tomonidan Respublikamizda intellektual mulk sohasida, jumladan, mualliflik huquqi sohasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'ruzalar qilindi.

Shuningdek, ishtirokchilarga Xalqaro intellektual mulk kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tanlovlar, xususan Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) tomonidan ta'sis etilgan "Ixtirochilik uchun" medali va "Intellektual mulk sohasida faoliyat yurituvchi eng yaxshi tashkilot" mukofotlari uchun Tanlovi va eng yaxshi mulk ob'yektlarini aniqlash va huquq egalarini mukofotlash maqsadida "BEST IP" Tanlovlari to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Matbuot anjumani oxirida barcha jurnalistlar sohaga oid savollariga to'laqonli javoblarini oldilar.

Axborot xizmati

Tanlov g'oliblari aniqlandi!

2019 yil boshida Respublikamizda e'lon qilingan Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) "Ixtirochilik uchun" medali va "Intellektual mulk sohasida faoliyat yurituvchi eng yaxshi tashkilot" mukofotlari tanlovi hamda Intellektual mulk agentligi tomonidan o'tkazilgan Eng yaxshi intellektual mulk ob'yektlari uchun "BEST IP" tanlovi nominatsiyalari g'oliblari aniqlandi. BIMT tomonidan ta'sis etilgan ushbu mukofotlar oliy kategoriyali maxsus mukofotlar bo'lib, butun dunyoda ixtirochilik, ijodkorlik va innovatsion faoliyatni rag'batlantirish, ixtirochilar, mualliflar imidjini yaratish va intellektual mulkdan o'z faoliyatida effektiv foydalanuvchi milliy ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ta'sis qilingan. Tanlovga kelib tushgan arizalar bo'yicha Intellektual mulk Agentligi va Respublikamiz vazirliklari vakillaridan tashkil topgan maxsus komissiya tomonidan g'oliblar aniqlandi va BIMT bilan kelishildi.

BIMTning "**Ixtirochilik uchun**" medaliga Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti professori, texnika fanlari doktori Jo'raev Anvar Jo'raevich munosib deb topildi. Anvar Jo'raev 274 ta ixtirolar va foydali modellar patenti muallifi bo'lib hisoblanadi.

BIMTning "**Intellektual mulk sohasida faoliyat yuritayotgan eng yaxshi tashkilot**" mukofoti esa Akademik S.Yu. Yunusov nomidagi O'simlik moddalari kimyosi institutiga nasib etdi.

Intellektual mulk agentligi tomonidan "Best IP" - 2019 Eng yaxshi intellektual mulk ob'yektlari uchun o'tkazilgan tanlovga 100 ga yaqin talabnoma qabul qilindi. Tanlov o'tkazish va nominantlarni aniqlash uchun Intellektual mulk agentligi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Axborot texnologiyalarini va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi, Fanlar Akademiyasi, Savdo-sanoat palatasi, Innovatsion rivojlanish vazirligi mutaxassislaridan iborat Tanlov tashkiliy qo'mitasi hamda intellektual mulk ob'yektlari bo'yicha komissiya tashkil qilindi. Tanlov komissiyasi va tashkiliy qo'mita tomonidan "Best IP" - 2019 Eng yaxshi intellektual mulk ob'yektlari tanlovi g'oliblari deb quyidagilar aniqlandi.

2019 yilning "Eng yaxshi ixtiro" nominatsiyasi bo'yicha

1-o'rin. "Kaolinni alyuminiy sulfatga qayta ishlash usuli" ixtirosi (IAP 05574-raqamli patent) uchun Namangan muhandislik qurilish instituti.

2-o'rin. "Cho'l o'simliklari qattiq urug'lariga ekishdan oldin ishlov berish usuli" ixtirosi (IAP 05677-raqamli patent) uchun Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti.

3-o'rin. "Lymnaeiadae va Planorbidae oilalariga mansub chuchuk suv mollyuskalariga qarshi kurashish uchun vosita" ixtirosi (IAP 05449-raqamli patent) O'zbekiston veterinariya ilmiy-tadqiqot institute.

2019 yilning "Eng yaxshi foydali modeli" nominasiyasi bo'yicha

1-o'rin. "Chigitli paxta uchun separator" foydali modeli (FAP 01317-raqamli patent) uchun "Industrial technological lines" MChJ.

2-o'rin. "Havoni paxta changlaridan tozalash uskunasi" foydali modeli (FAP 01352-raqamli patent) uchun Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

3-o'rin. "Sug'oriladigan yerlarni begona o'tlardan tozalash uchun qurilma " foydali modeli (FAP 01295-raqamli patent) uchun Ermatova Zulayxo Rustamjon qizi.

2019 yilning "Eng yaxshi sanoat namunasi" nominasiyasi bo'yicha

1-o'rin. "Panno" sanoat namunasi (SAP 01555-raqamli patent) uchun "Sovplastital" aksiyadorlik jamiyati.

2-o'rin. "Universal quti" sanoat namunasi (SAP 01582-raqamli patent) uchun "Sovplastital" aksiyadorlik jamiyati.

3-o'rin. "Ko'krak nishoni" sanoat namunasi (SAP 01715-raqamli patent) uchun Urgench davlat universiteti.

2019 yilning "Eng yaxshi seleksiya yutug'i" nominasiyasi bo'yicha

Soyani "Sochilmas" navi (NAP 00171-raqamli patent) O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Genetika va o'simliklar eksperimental biologiyasi instituti.

2019 yilning "Eng yaxshi EHM uchun yaratilgan dastur va ma'lumotlar bazasi" nominasiyasi bo'yicha

1-o'rin. "O'zbekiston Respublikasi neft-gaz qazib chiqarish va gazni qayta ishlash korxonalarini uchun chiqindi hosil bo'lish me'yorini hisoblash dasturi" (DGU 06004-raqamli guvohnoma) uchun "O'ZLITINEFTGAZ" aksiyadorlik jamiyati

2-o'rin. "O'zbekiston Respublikasi mintaqalari uchun sun'iy yo'ldosh va yer o'lchovlaridan olingan uzoq muddatli kuzatishlarga asoslangan aktinometrik ma'lumotlarni aniqlash dasturi" (DGU 05676-raqamli guvohnoma) uchun O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi S.A.Azimov nomidagi "Fizika-Quyosh" ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi S.V/ Stradubsev nomidagi Fizika texnika instituti.

3-o'rin. Ikki qatlamli muhitda neftni filtrlanish masalasining sonli yechimi dasturiy ta'minoti (DGU 05207-raqamli guvohnoma) uchun Nazirova Elmira Shodmonovna "Yoshlar o'rtasidagi eng yaxshi EHM dasturlovchisi" nominatsiyasi bo'yicha "Blokcheyn tizimi orqali talabalar bilimni baholash" dasturi (DGU 05898-raqamli guvohnoma) uchun Yokubov Baxtiyor Zoid ugli.

"Faxriy ixtirochi" nominatsiyasi bo'yicha Mamatov Farmon Murtazaevich g'olib deb topildi.

2019 yil 26 aprel kuni "Tashkent Law Spring" Xalqaro yuridik forumi doirasida o'tkaziladigan "Intellectual mulk" mavzusiga bag'ishlangan Sessiya yakunida Tanlov g'oliblari taqdirlash marosimi o'tkaziladi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1280/>

Xalqaro intellektual mulk kuniga bag'ishlab o'tkazilgan tadbirlar

2019 yil 26 aprel kuni Xalqaro binzes markazida "Tashkent Law Spring" Xalqaro yuridik forumi doirasida "Intellectual mulk" mavzusiga bag'ishlangan Sessiya o'tkazildi.

Tadbirda Agentlik mutaxassislari, patent vakillari, Davlat soliq qo'mitasi huquqshunoslari, Madaniyat Vazirligi, O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O'zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko'maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo'mitasi, Axborotlashtirish va telekommunikasiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiya mutaxassislari qatnashdilar.

Sessiya ishida BIMTning Sharqiy Yevropa, Markaziy Osiyo va Kavkaz mamlakatlari bo'limi boshlig'i Ilya Gribkov, Rossiya Davlat Intellectual mulk akademiyasi rektori Ivan Bliznes, Moldova davlat universiteti professori Dorian Kiroshka, Myunxen shahrining okrug sudi sudyasi Oliver Shon va Kontrafaktga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy va huquqiy masalalar Assosiasiyayai direktori Devid Saussinan (Italiya), shuningdek Rossiya baholovchilar jamiyatining faxriy a'zosi, texnika fanlari doktori Xamidulla Mamajonov o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Tadbirda ma'ruzachilar tomonidan "Intellectual mulkka oid milliy strategiya - iqtisodiyot rivojining asosidir", "Mualliflik huquqining xalqaro-huquqiy boshqarilishi, mualliflik huquqi sohasiga oid ko'ptaraflama konvensiyalar", "Tovar belgisini huquqiy himoya qilish va kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurash", "Intellectual huquqlar bo'yicha maxsus sudlar: huquqni qo'llashning borasida yangi imkoniyatlar, "Brendning qiymati va uning har qanday iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishi hamda iqtisodiy o'sish bilan bog'liqligi", "Kontrafaktga va qonuniy parallel importga qarshi kurash" kabi mavzularda taqdimotlar qilindi va ular bo'yicha munozaralar yuritildi.

Sessiya yakunida 2019 yilning boshida respublikamizda e'lon qilingan Butunjahon intellektual mulk tashkilotining (BIMT) "Ixtirochilik uchun" medali va "Intellectual mulk sohasida faoliyat yurituvchi eng yaxshi tashkilot" mukofotlari hamda Intellectual mulk agentligi tomonidan e'lon qilingan Eng yaxshi intellektual mulk ob'yektlari uchun "BEST IP - 2019" tanlovi nominasiyalari g'oliblarini taqdirlash marosimi o'tkazildi.

“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 4-soni nashrdan chiqdi

“Rasmiy axborotnoma” ning 2019 yil 4-sonida quyidagi ma'lumotlar:

- 42 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;
- Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan 326 ta intellektual mulk ob'yektlari, jumladan, 13 ta ixtirolar, 10 ta foydali modellar, 22 ta sanoat namunalari, 203 ta tovar belgilari, 71 ta EHM uchun dasturlar, seleksiya bo'limda o'simlik navlariga va hayvon zotlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan 7 ta talabnoma, o'simlik navlariga va hayvon zotlariga seleksiya yutuqlarining nomlariga 7 ta talabnoma haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Shuningdek,

- foydali modellar bo'yicha 2 ta, tovar belgilari bo'yicha 24 ta litsenziya shartnomalari;

- tovar belgilari bo'yicha 11 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Axborot xizmati

Intellektual mulk sohasidagi qonunbuzarliklar uchun javobgarlik choralari belgilandi

Intellektual mulk ob'yektlariga huquq egalarining mutlaq huquqlari himoyasini ta'minlash hamda intellektual mulk ob'yektlaridan qonunga xilof foydalanganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 maydagi O'RBQ-534-son Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi.

Xususan, Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksining 177-moddasi "O'zganing tovar belgisidan, xizmat ko'rsatish belgisidan, tovar kelib chiqqan joy nomidan yoki firma nomidan qonunga xilof ravishda foydalanish" nomi ostida javobgarlik choralari aniq belgilangan holda o'zgartirilgan bo'lsa, shuningdek mazkur modda yangi tahrirdagi 1771 (Mualliflik huquqini va turdosh huquqlarni buzish) va 1772 (Ixtiroga, foydali modelga va sanoat namunasiga bo'lgan huquqlarni buzish) moddalari bilan to'ldirildi.

Mazkur kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalardan ko'zlangan asosiy maqsad - bu mamlakatimizda tadbirkorlik va kichik biznesni halol raqobat asosida rivojlanishini ta'minlash hamda investision muhitni yaxshilashdan iboratdir.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1286/>

9 may - Xotira va qadrlash kuni

Ikkinchi jahon urushida necha yuz minglab vatandoshlarimiz fashist bosqiniga qarshi mardonavor kurashishgan. Jang maydonlarida halok bo'lgan mard o'g'lonlari yodini xalqimiz hamisha muqaddas bilib, ularning ruhiga hurmat bajo keltirib kelmoqda. Urushdan omon qaytib, yana mehnat jabhasida jonbozlik ko'rsatgan, urushdan keyingi dolg'ali yillarda o'zining fidoyi mehnati bilan yurt ravnaqi, jamiyat rivojiga hissa qo'shgan yurtdoshlarimiz ham ko'pchilikni tashkil etadi.

Bugun ularni qancha ardoqlasak, hurmat-ehtirom ko'rsatsak arziydi. Xotira va qadrlash kuni arafasida Intellektual mulk agentligi va "IP-CENTER" o'quv markazi xodimlari sohaning faxriy xodimi, Ikkinchi jahon urushi qatnashchisi Yashkin Vladimir Petrovichni ziyorat qilib, sovg'a-salomlar taqdim etdilar.

V.P.Yashkin ko'p yillar davomida, ya'ni 1995-2010 yillarda O'zbekiston Respublikasi Patent idorasida mehnat qilib, mamlakatda intellektual mulk sohasi rivojiga munosib hissa qo'shgan.

O'zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi rahbariyati va jamoasi yurtimizdagi barcha urush faxriylarini, front ortida fidokorona mehnat qilib, fashizim ustidan qozonilgan g'alabaga o'zining munosib ulushini qo'shgan mehnat faxriylarini 9 may - Xotira va qadrlash kuni munosabati bilan samimiy qutlaydi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1288/>

Agentlikda Yevropa va Yaqin sharq davlatlari "MHCS" va "Societe Jas Hennessy & Co." kompaniya vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi

Agentlikda Yevropa va Yaqin sharq davlatlari hududlarida "MHCS" va "Societe Jas Hennessy & Co." kompaniyalari menedjerlari Nataliya Kambos va Aleksandra Amira Laure, shuningdek Kontrafaktga qarshi kurash bo'yicha ijtimoiy va huquqiy masalalar Assosiasiyayi direktori Devid Saussinan bilan Agentlik rahbariyati va mutaxassislari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda xorijiy kompaniyalari, jumladan "MHCS" va "Societe Jas Hennessy & Co." kompaniyalarning aroq-vino mahsulotlarini kontrafakatlari va parallel importga chiqarish masalalari ko'rib chiqildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1290/>

Agentlikda "Davlat organlarida odob-ahloq qoidalariga rioya qilish" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi

Har bir davlat idorasi sog'lom ma'naviy va ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantirish, uning nufuzi hamda obro'-e'tiborini asrab-avaylash, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarlarga ega bo'lishi, jamiyatdagi nufuzini yanada oshirishi uchun avvalambor, odob-ahloq qoidalariga rioya etishi zarur. Shu munosabat bilan, O'zbekiston Respublikasi Adliya vaziri tomonidan 2019 yil 1 may kuni tasdiqlangan buyrug'iga binoan 5 may - 5 iyun kunlari barcha adliya organlari va muassasalarida "Huquqiy madaniyat va Odob-ahloq oyligi" deb e'lon qilindi, hamda shu oyda amalga oshiriladigan tadbirlarni o'tkazish bo'yicha "Yo'l xaritasi"si tasdiqlandi. Ushbu "Yo'l xaritasi"da belgilangan tadbirlarni o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlash maqsadida Agentlik va "IP-CENTER" o'quv markazi xodimlari ishtirokida "Davlat organlarida odob-ahloq qoidalariga rioya qilish" mavzusida davra suhbatini o'tkazildi.

Tadbirda Intellektual mulk agentligining Mualliflik huquqi va litsenziyalash bo'limi mutaxassislari tadbir mavzusiga oid ma'ruza qildilar. Davra suhbatini qatnashchilari odob-ahloq qoidalari to'g'risida, shuningdek mamlakatimizda korrupsiyaga qarshi olib borilayotgan ishlar to'g'risida ma'lumotga ega buldilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1292/>

Ta'lim sohasida test sinovlarini o'tkazisli uchun "xTest" dasturi ishlab chiqildi

Dastur ta'lim sohasida fanlar bo'yicha test sinovlari jarayonlarini avtomatlashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur savollar va javoblarni kompyuter xotirasiga saqlash va javoblardan iborat kartalar tayyorlash, sinov o'tayotgan auditoriyada savollarni aralash tartibda takrorlamasdan tanlab olish, tanlangan savollar auditoriyaga oldindan yozilgan audio yozuvni eshittirish yoki matn shaklida yetkazish, dastur avtomatik ravishda sinov uchun belgilangan vaqt intervalini kutish, test jarayonini monitoring qilib borish kabi funksional imkoniyatlarga ega.

Mualliflar Sadirov Feruz va Sadirov Xasanlarga ushbu dastur uchun DGU 06156-raqamli guvohnoma berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1294/>

Sirdaryo viloyati tabirkorlari ishtirokida seminar o'tkazildi

Intellectual mulk agentligi huzuridagi "IP-Center" O'quv markazi va Sirdaryo viloyati Savdo-sanoat palatasi hamkorlikda viloyat tadbirkorlik sub'ektlari vakillari ishtirokida "Intellectual mulk ob'yektlarining huquqiy muhofazasi" mavzusida seminar o'tkazildi.

Seminarda mahalliy hokimiyat organlari xodimlari, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining viloyatdagi hududiy bo'linmalari vakillari, tadbirkorlik sub'ektlari va boshqa mutaxassislar ishtirok etdilar.

"IP-Center" O'quv markazi mutaxassislari tomonidan tadbir qatnashchilariga O'zbekistonda intellektual mulk ob'yektlarining huquqiy muhofazasi, jumladan ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari huquqiy muhofazasi tog'risida ma'lumot berib o'tdilar.

Seminar yakunida yoritib berilgan ma'lumotlarni mustaxkamlash maqsadida ishtirokchilarga sohaga oid buklet va qo'shimcha materiallar tarqatildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1298/>

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasida "Intellectual mulk ob'yektlariga huquqlarni topshirish bo'yicha shartnomalar" mavzusida seminar o'tkazildi

Joriy yilning 20 may kuni Intellectual mulk agentligi bilan O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi hamkorligida "Intellectual mulk ob'yektlariga huquqlarni topshirish bo'yicha shartnomalar" mavzusida seminar o'tkazildi. Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Fizika-matematika va texnika bo'limi va Kimyo-biologiya bo'limlari mutaxassislari, hamda Akademiya ta'sarrufidagi ilmiy-tadqiqot institutlari mutaxassislari ishtirok etdilar.

Intellectual mulk agentligi huzuridagi "IP-CENTER" o'quv markazi bosh mutaxassisi O'rinboev Abduljalil tomonidan seminar ishtirokchilariga "Intellectual mulk ob'yektlariga huquqlarni topshirish bo'yicha shartnomalar" mavzusida ma'ruza qilindi.

Ma'ruzada Lisenziya shartnomalari va Huquqni boshqa shaxsga o'tkazish shartnomalarini tuzish va ularni ro'yxatdan o'tkazish qoidalari, shuningdek 2019 yilning birinchi choragida Agentlik tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan shartnomalar statistik ma'lumotlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Tadбир so'nggida seminar ishtirokchilariga Agentlik faoliyatiga oid bukletlar va tarqatma materiallar taqdim etildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1300/>

Oftalmologik operatsiyalar uchun qurilma yaratildi

Jarrohlikda, xususan yiringli uveitlarni davolashga mo'ljallangan oftalmologik operatsiyalar, ko'zning old kamerasini yuvish va unga dori preparatlarini kiritish foydalaniladigan qurilma yaratildi. Ushbu qurilma drenaj naychaga o'rnatilgan ishchi poynakka ega. Ishchi poynak distal uchi o'tmaslashtirilgan igna ko'rinishida bajarilgan, poynakning boshqa uchida tutqich o'rnatilgan. Drenaj naycha turtkich bilan ta'minlangan, drenaj naychaning ichki yuzasida klapan bajarilgan.

Mualliflar Fayzieva Dilorom, Sayfullaev Shuxrat va Kamilov Xolidjanlarga FAP 01369 raqamli foydali modelga patent berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1301/>

Oliy ta'lim muassasalari mutaxassislari uchun "Intellectual mulk ob'yektlariga huquqlarni boshqa shaxsga berish" mavzusida videokonferensiya o'tkazildi

Joriy yilning 22 may kuni Adliya Vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi hamda Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamkorligida Toshkent Moliya institutida "Intellectual mulk ob'yektlariga huquqlarni boshqa shaxsga berish" mavzusida videokonferensiya tashkil etildi.

Videokonferensiyada Adliya Vazirligining Toshkent davlat yuridik universiteti, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi ta'sarrufidagi Toshkent shahri va regionlardagi barcha oliy ta'lim muassasalari mutasaddi xodimlari va mutaxassislari ishtirok etdilar.

Tadbir ishtirokchilari uchun Intellectual mulk agentligi va Agentlik huzuridagi "IP-CENTER" o'quv markazi mutaxassislari tomonidan mavzuga oid ma'ruzalar va taqdimotlar qilindi.

Ma'ruzachilar tomonidan sohaga oid amaldagi qonunchilik, Intellectual mulk ob'yektlariga huquqlarni uchinchi shaxsga topshirish bo'yicha shartnomalarni rasmiylashtirish va ularni ro'yxatdan o'tkazish qoidalari to'g'risida, shuningdek litsenziya shartnomalarining turlari to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Shuningdek, tadbir ishtirokchilari tomonidan Agentlik faoliyati bo'yicha, jumladan ixtirolar va foydali modellarga talabnoma rasmiylashtirish va ularni rasmiy ekspertizadan o'tkazish muddatlari to'g'risidagi savollariga mutaxassislardan tomonidan to'laqonli javoblar berildi.

Tadbir so'ngida ishtirokchilarga Agentlik faoliyatiga oid bukletlar va tarqatma materiallar taqdim etildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1303/>

Agentlik xodimlari tajriba almashish maqsadida AQSh davlatida xizmat safarida bo'lib qaytdilar

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi bir guruh vakillari AQSh Davlat departamentining "International visitor leadership program" (IVLP) nomli dasturi doirasida "Intellectual mulk salohiyatini oshirish" mavzusida tajriba almashish va o'rganish bo'yicha xizmat safarida bo'lib qaytdilar.

Xizmat safari AQShning Vashington, Baltimor va Ralli shaharlarida bo'lib, asosiy uchrashuvlar AQSh patent va tovar belgilari milliy idorasi, AQSh mualliflik

huquqi milliy idorasi, AQSh federal okrugi apellyasiya sudi, Shimoliy Karolina shtati bosh prokurori, AQSh Kongressi kutubxonasi, Intellektual mulk huquqlari bo'yicha milliy koordinasiya markazi kabi intellektual mulk sohasidagi davlat hamda shu bilan birga nodavlat tashkilotlarida bo'lib o'tdi. Shu bilan birgalikda, Vashington nomidagi universitetning huquq fakulteti, J.Xopkins nomli universitetning texnologiya va start-uplarni qo'llab-quvvatlash markazi, Merilend universitetining transfer texnologiyalari markazida ham uchrashuvlar tashkil etildi.

Ushrashuvlar asosiy masala intellektual mulkni muhofaza qilish, huquq egalari va mualliflarning buzilgan huquqlarini tiklash, sudlar tomonidan intellektual mulk sohasiga doir ishlarning ko'rib chiqish tartibi va uni o'ziga xos xususiyatlari, sohadagi huquqbuzarliklarni aniqlashda davlat tashkilotlarining o'zaro hamkorligi, intellektual mulk ob'yektlariga topshiriladigan talabnomalarning ekspertizasi, innovasiya va yangi texnologiyalarni joriy etishni rag'batlantirish kabi muhim masalalarga bag'ishlandi va bu boradagi AQSh tajribasi o'rganildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1308/>

"Intellektual mulkni himoya qilishning dolzarb masalalari" mavzusiga bag'ishlangan matbuot anjumani o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi majlislar zalida 2019 yil 31 may kuni "Intellektual mulkni himoya qilishning dolzarb masalalari" mavzusiga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi.

Mazkur tadbirda Agentlikning yetakchi mutaxassislari va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdilar. Matbuot anjumanida intellektual mulkni himoya qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha so'nggi yillarda Respublikamizda qabul qilingan qonunlar va qonunosti hujjatlar to'g'risida axborotlar to'g'risida ma'lumotlar berildi.

Rivojlangan davlatlarning tajribasidan kelib chiqib, mamlakatimizda intellektual mulk sohasidagi qonunchilik hamda bu yo'nalishdagi huquqbuzarliklar uchun ta'sir choralarini belgilash va kuchaytirish borasida bir qator samarali ishlar amalga oshirilmoqda.

Agentlik mutaxassislari tomonidan joriy yilning 5 oyi mobaynida intellektual mulk ob'yektlari ekspertizasi va rasmiy ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi statistik ma'lumotlar to'g'risida taqdimotlar qilindi. Shuningdek, matbuot anjumanida hozirgi kundagi sohaga oid o'z yechimini kutib turgan mavjud muammoli masalalar to'g'risida ham fikr yuritildi.

“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 5-soni nashrdan chiqdi

“Rasmiy axborotnoma” ning 2019 yil 5-sonida quyidagi ma'lumotlar:

- 35 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;
- Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan 383 ta intellektual mulk ob'yektlari, jumladan, 32 ta ixtirolar, 6 ta foydali modellar, 19 ta sanoat namunalari, 216 ta tovar belgilari, 98 ta EHM uchun dasturlar, seleksiya bo'limda o'simlik navlariga va hayvon zotlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan 6 ta talabnoma, o'simlik navlariga va hayvon zotlariga seleksiya yutuqlarining nomlariga 6 ta talabnoma haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Shuningdek,

- ixtirolar bo'yicha 1 ta, foydali modellar bo'yicha 2 ta, tovar belgilari bo'yicha 12 ta litsenziya shartnomalari;

- tovar belgilari bo'yicha 10 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Axborot xizmati

Tadbirkorlarning tovar belgilariga bo'lgan huquqlariga nisbatan nohalol raqobatni oldini olishda o'zaro hamkorlik

Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirda Agentlik rahbariyati, Intellektual mulk sohasidagi qonunchilikka rioya kilinishi yuzasidan monitoring bo'limi va Mualliflik huquqi va lisenziyalash bo'limi mutaxassislari va Qo'mitaning Nohalol raqobatni oldini olish boshqarmasi mutasaddi xodimlari qatnashdilar.

Qo'mita vakillariga Agentlik faoliyati, intellektual mulk ob'yektlariga, jumladan tovar (xizmat ko'rsatish) belgilariga nisbatan huquqiy muhofaza berish qoidalari, ya'ni Agentlikka topshirilgan talabnomalarni rasmiy va ilmiy-texnik ekspertizadan o'tkazish muddatlari, shuningdek tovar belgilaridan noqonuniy foydalanish holatlarini olish bo'yicha Agentlik tomonidan olib borilayotgan ishlar to'g'risida axborot berildi.

O'z navbatida Qo'mita vakillari o'zlarining ish faoliyatida tadbirkorlar huquqini himoya qilishda duch kelayotgan muammoli masalalar bilan o'rtoqlashdilar.

Uchrashuv so'nggida Agentlik rahbariyati bilan Qo'mita vakillari tadbirkorlar huquqlarini nohalol raqobatdan himoya qilishda o'zaro hamkorlik qilishga kelishib oldilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1313/>

"Nohalol raqobat masalalari va intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni himoya qilish" mavzusidagi tadbirda Intellektual mulk agentligi mutaxassisi ishtirok etdi

O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi tomonidan "Raqobat 4.0" muzokaralar maydonchasi doirasida "Nohalol raqobat masalalari va intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni himoya qilish" mavzusida joriy yilning 31 may kuni tadbir tashkil etildi.

Tadbirda O'zbekiston Respublikasi Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi mas'ul xodimlari, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi, respublikada faoliyat yuritayotgan yirik kompaniyalar, xususiy biznes va ommaviy axborot vositalari vakillari qatnashdilar.

Tadbir davomida Agentlikning Sanoat namunalari ilmiy-texnik ekspertizasi va tovar belgilar ekspertizasi bo'limi boshlig'i Shermatov Dilmurod sohaga oid qonunlarga kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida, jumladan O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 2 maydagi 534-son Qonuni bilan O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksiga intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklar uchun javobgarlik choralarini kuchaytirilganligi to'g'risida ma'lumot berib o'tdi. Shuningdek tadbir qatnashchilari o'zlarining tovar belgilari muhofazasiga oid berilgan savollariga ham to'laqonli javoblar oldilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1316/>

Agentlikda Germaniyaning "Bionorica SE" farmasevtik kompaniyasi vakillari bilan uchrashuv

Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida Germaniyaning "Bionorica SE" farmasevtik kompaniyasi vakili hamda kompaniyaning Toshkentdagi vakillari bilan Agentlik mutaxassislari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda O'zbekistonda kompaniyaga tegishli intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi masalalari to'g'risida fikrlashildi. Shuningdek kelajakda Agentlik bilan "Bionorica SE" kompaniyasiga tegishli tovar belgilarini himoya qilishda hamkorlik qilishga kelishildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1318/>

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazadi

Intellektual mulk agentligi joriy yilning 18 iyunida respublikamiz fuqarolari va ommaviy axborot vositalari uchun "Ochiq eshiklar kuni" o'tkazadi. "Ochiq eshiklar kuni" davomida tashrif buyuruvchilar Intellektual mulk agentligi faoliyati va bo'limlari haqida to'liq ma'lumotga ega bo'lishlari mumkin. Agentlik bo'lim boshliqlari va mutaxassislari tashrif buyuruvchilarning barcha savollariga batafsil javob beradilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1320/>

Respublikamizda "O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish sohasida xalqaro shartnomalarga qo'shilish to'g'risidagi qonunlarning mazmun va mohiyati" mavzusiga bag'ishlangan turkum seminarlar o'z ishini boshladi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda Adliya vazirligi hamkorligida respublikamizda "O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish sohasida xalqaro shartnomalarga qo'shilish to'g'risidagi qonunlarning mazmun va mohiyati" mavzusiga bag'ishlangan turkum seminarlar tashkil etilmoqda.

Ushbu seminarlarning asosiy maqsadi O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk huquqlarini muhofaza qilish sohasida bir qator xalqaro shartnomalarga qo'shilishi to'g'risidagi qonunlarning talablarini ijrochilarga yetkazilishi, hamda qonunlarning mohiyati va ahamiyati to'g'risida keng aholi o'rtasida tushuntirishlar olib borishdan iborat.

Joriy yilning 10 iyunida Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahri va Andijonda, 11 iyunda Farg'ona, Urganch va Navoiy shaharlarida bo'lib o'tgan seminarlarda tegishli vazirliklar, davlat qo'mitalari hamda idoralarining hududiy boshqarmalari vakillari, "O'zbekkino", Yozuvchilar uyushmasi, nodavlat notijorat tashkilotlari, MTRK viloyati bo'limlari, OAV vakillari va mualliflik huquqi va turdosh huquqlar sohasida faoliyat yurituvchi tegishli tadbirkorlik subektlari vakillari ishtirok etdilar.

Tadbirlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovasion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari qo'mitasi deputatlari va Intellektual mulk agentligi mutaxassislari tomonidan ma'ruzalar qilindi. Rejaga muvofiq turkum seminarlar 12-14 iyun kunlari respublikamizning boshqa viloyatlarida va Toshkent shahrida o'tkaziladi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1322/>

Toshkent viloyatida Intellektual mulk agentligi rahbariyatining sayyor qabuli o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi rahbariyati ishtirokida Toshkent viloyatida joriy yilning 12 iyun kuni Nurafshon shaxrida sayyor qabul o'tkazildi. Tadbirda mas'ul va manfaatdor tashkilotlar vakillari, tadbirkorlar, keng jamoatchilik hamda barcha qiziquvchilar qatnashdilar.

Uchrashuvda Agentlik direktori v.v.b. ishtirokchilar bilan ochiq muloqotga kirishib, Agentlik faoliyatiga doir barcha savollarga javob berdi. Xususan, intellektual mulk sohasiga oid qonunchilik aktlari, sanoat mulklari va mualliflik huquqlari hamda turdosh huquqlarning huquqiy muhofazasi, intellektual mulk ob'ektlarini ro'yxatga olish uchun talabnomalar topshirish tartiblari qizg'in muhokama qilindi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1327/>

"O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk huquqlarini muxofaza qilish sohasida xalqaro shartnomalarga qo'shilish to'g'risidagi qonunlarning mazmun va mohiyati" mavzusiga bag'ishlangan turkum seminarlar o'z ishini yakunladi

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi hamda Adliya vazirligi hamkorligida respublikamizda joriy yilning 10 iyunida boshlangan "O'zbekiston Respublikasining intellektual mulk huquqlarini muxofaza qilish

sohasida xalqaro shartnomalarga qo'shilish to'g'risidagi qonunlarning mazmun va mohiyati" mavzusiga bag'ishlangan turkum seminarlar o'z ishini yakunladi.

Barcha tadbirlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Innovasion rivojlanish, axborot siyosati va axborot texnologiyalari qo'mitasi deputatlari va Intellektual mulk agentligi mutaxassislari tomonidan ma'ruzalar qilindi.

Tadbir qatnashchilari tomonidan berilgan savollarga Oliy majlis Qonunchilik palatasi deputatlari va Agentlik mutaxassislari tomonidan to'laqonli javoblar berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1329/>

An'anaviy bilimlar, madaniyat ifodalari va genetik resurslar: bular nima va ular kimga tegishli?

Ixtiro, sanoat namunalari, adabiy va badiiy asarlar, o'simlik navlari, shuningdek, nomlar, ramzlar va belgilar aqliy ong natijasi – bu Intellektual mulk hisoblanadi. So'nggi yillarda mahalliy xalqlar, mahalliy jamoalar va hukumatlar (asosan rivojlanayotganlar) o'zlariga tegishli intellektual mulkni himoya qilishni talab qilmoqdalar, garchi ularning ta'siri ostida intellektual mulk tizimi mavjud bo'lsada, ular har bir kishi foydalanishi mumkin bo'lgan jamoat mulki hisoblanadi. O'zbekiston milliy axborot agentligi muxbirining Agentlik bosh patent eksperti bilan suhbat.

To'liq: http://www.uza.uz/ru/society/traditsionnye-znaniya-vyrazheniya-kultury-i-geneticheskie-re-12-06-2019?sphrase_id=4281031

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1331/>

Bolalarda tug'ma maymoq oyoqlikni tashhishlash va davolash taktikasini tanlash uchun dasturi yaratildi

Ushbu dastur bemorlarni tekshirish ma'lumotlarini, jumladan rentgenografiya, plantografiya, podometriya, elektroneyromiografiya ma'lumotlarini yig'ish, kiritish va saqlash kabi funksional imkoniyatlarga ega. Dastur olingan ma'lumotlar bo'yicha kasallikning og'irlik darajasini aniqlash va ushbu ma'lumotlar asosida kerakli davolashni tanlash imkonini beradi. Dasturdan amaliy tibbiyotda bemorlarni kasalxonaga qabul qilishda foydalanilish mumkin.

Dastur mualliflari Jasurbek Urinov, Axrorbek Djuraev va Baxodir Davlatovlarga DGU 06234 raqamli guvohnoma berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1333/>

Urganchda Texnologiyalar va innovasiyalarni qo'llab-quvvatlash markazi tashkil etildi

Joriy yilning 22 iyunida Urganch davlat universitetida muassasa rahbariyatining Intellektual mulk agentligi delegasiyasi bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuvda universitet bazasida Texnologiyalar va innovasiyalarni qo'llab-quvvatlash markazini tashkil etish masalasi muhokama etildi. Delegasiya tashrifi doirasida TIQQMni tashkil etish to'g'risidagi Nizom, Markaz faoliyatini tashkil etish va ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ro'yxati va "IP-CENTER - intellektual mulk sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv markazi" hamda Urganch davlat universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risida 13-son/TIQQM Bitimi imzolandi.

Shuningdek, Urganch davlat universitetida "O'zbekistonda intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi" mavzusida seminar bo'lib o'tdi. Seminar ishida hududiy davlat va xo'jalik boshqaruvi idoralari vakillari, tadbirkorlar, shuningdek, viloyatdagi oliy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkiblari qatnashdilar.

Seminarida "IP-CENTER" DUK vakili tomonidan intellektual mulk ob'ektlarining patentga layoqatliligi, talabnomalarning mazmuni va topshirish tartiblari, huquqiy muhofazaning taqdim etilish shartlari to'g'risida ma'ruza qilindi. Seminar yakunida ishtirokchilar tomonidan Agentlik vakillariga mavzu doirasida va Agentlik faoliyati yuzasidan turli savollar berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1335/>

Xorazm viloyati aholisi uchun Intellektual mulk agentligi rahbariyatining sayyor qabuli o'tkazildi

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi rahbariyati ishtirokida Xorazm viloyati aholisi uchun joriy yilning 22 iyun kuni Urganch shahrida sayyor qabul o'tkazildi. Tadbirda mas'ul va manfaatdor tashkilotlar vakillari, tadbirkorlar, keng jamoatchilik hamda viloyat oliy o'quv yurtlari vakillari qatnashdilar.

Sayyor qabulda Agentlik direktori v.v.b. Sagdullaev ishtirokchilarga Agentlik faoliyatiga doir, hamda IMOlariga huquqiy muhofaza olish bo'yicha hozirgi kunda yaratilgan qulayliklar to'g'risida ma'lumotlar berib o'tdi. Shuningdek, tadbir qatnashchilari intellektual mulk sohasiga oid qonunchilik aktlari, sanoat mulklari va mualliflik huquqlari hamda turdosh huquqlarning

huquqiy muhofazasi, intellektual mulk ob'ektlarini ro'yxatga olish uchun talabnomalar topshirish tartiblari to'g'risida berilgan savollariga Agentlik rahbariyati tomonidan to'laqonli javoblar oldilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1336/>

O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasida intellektual mulk muhofazasiga bag'ishlangan o'quv mashg'uloti o'tkazildi

Intellektual mulk agentligi va Davlat bojxona qo'mitasi hamkorligida tashkil etilgan tadbirda Davlat bojxona qo'mitasining Toshkent shahar va Toshkent viloyati boshqarmalari va Bojxona instituti xodimlari, hamda Intellektual mulk agentligi mutaxassislari ishtirok etdilar.

Tadbirda intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish, tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasini talqin etishning asosiy qoidalari, ayrim tovarlarni tasniflash xususiyatlari mavzularida ma'ruzalar qilindi. Shuningdek, Agentlik mutaxassisi tomonidan tadbir qatnashchilari uchun "Intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqlarning buzilishi" mavzusida mahorat darsi o'tkazildi.

Mahorat darslarida chegarani noqonuniy kesib o'tayotgan kontrafakt tovarlarni to'xtatish maqsadida Agentlik va Qo'mita bilan yaratiladigan ma'lumotlar bazasi va uni amalga oshirish mexanizmlari to'g'risida fikr yuritildi. Bundan tashqari TRIPS shartnomasining xususiyatlari, parallel import va boshqa masalalar to'g'risida tushuntirib berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1338/>

“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 6-soni nashrdan chiqdi

“Rasmiy axborotnoma” ning 2019 yil [6-sonida quyidagi](#) ma'lumotlar:

- 33 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;
- Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan 537 ta intellektual mulk ob'ektlari, jumladan, 31 ta ixtirolar, 12 ta foydali modellar, 13 ta sanoat namunalari, 226 ta tovar belgilari, 221 ta EHM uchun dasturlar, 2 ta ma'lumotlar bazasi, seleksiya bo'limda o'simlik navlariga va hayvon zotlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan 16 ta talabnoma, o'simlik navlariga va

hayvon zotlariga seleksiya yutuqlarining nomlariga 16 ta talabnoma haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi. Shuningdek,

- ixtirolar bo'yicha 1 ta, tovar belgilari bo'yicha 14 ta litsenziya shartnomalari;
- sanoat namunalari bo'yicha 1 ta, tovar belgilari bo'yicha 15 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1339/>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4380-son Qarori qabul qilindi.

Joriy yilning 1 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi [PQ-4380-son](#) Qarori qabul qilindi.

Mazkur Qarorning qabul qilinishi mamlakatimizda intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlarni davom ettirishda va mamlakatning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishda muhim qadam hisoblanadi.

Xususan qaror bilan Intellektual mulk agentligiga quyidagi bir qator yangi huquqlar berildi:

- davlat organlari, korxonalari, muassasalari va boshqa tashkilotlar faoliyatida intellektual mulk sohasidagi qonunchilik talablariga rioya etilishi bo'yicha o'rganishlar o'tkazish;

- davlat organlari, korxonalari, muassasalari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga aniqlangan qonunbuzilishlar, ularga imkon beruvchi sabab va shart-sharoitlarni bartaraf etish haqida ko'rib chiqilishi majburiy bo'lgan taqdimnomalar kiritish;

- intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlari buzilishiga yo'l qo'ymaslik haqida mansabdor shaxslarni yozma ravishda ogohlantirish;

- intellektual mulk sohasidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun davlat organlari, korxonalari, muassasalari va boshqa tashkilotlar mansabdor shaxslariga nisbatan ma'muriy jazo qo'llash huquqi.

Qarorda belgilangan muhim jihatlardan biri bu tovar belgisi va xizmat ko'rsatish belgisini O'zbekiston Respublikasida hammaga ma'lum deb e'tirof etishning mezonlari o'rnatilganligidir.

Shu bilan birga, endilikda Adliya vazirligi huzurida faoliyat ko'rsatuvchi Apellyatsiya kengashi faoliyatiga doir yangi muhim normalar ushbu Qarorda o'z aksini topganligi alohida e'tiborga molikdir.

Shuningdek, intellektual mulk muhofazasini yanada mustahkamlash maqsadida hududiy adliya bo'linmalariga ham bir qator qo'shimcha vazifalar yuklatilganligi alohida e'tiborga molikdir.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1342/>

Qishloq ho'jalik sohasida tayanch texnologiyalar va innovatsiyalar qo'llab-quvvatlash markazi tashkil etildi

2019 yil 4 iyul kuni Toshkent davlat agrar universitetida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi delegatsiyasi va universitet rahbariyati bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuv davomida qishloq xo'jalik sohasida tayanch bo'lgan Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazini tuzish masalasi muhokama qilindi. Delegatsiya tashrifi doirasida TIQQMni tashkil etish to'g'risidagi Nizom, Markaz faoliyatini tashkil etish va ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ro'yxati va «IP-CENTER – intellektual mulk sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv markazi» hamda Toshkent davlat agrar universiteti o'rtasida hamkorlik to'g'risida Bitim imzolandi. Seminarda «IP-CENTER» DUK vakili tomonidan intellektual mulk ob'ektlarining patentga layyohatligi, talabnomalarning mazmuni va topshirish tartiblari, huquqiy muhofazani taqdim etish shartlari to'g'risida ma'ruza qilindi.

Seminar yakunida ishtirokchilar intellektual mulk ob'ektlariga himoya olishga taalluqli savollarga javoblar olishdi.

Axborot xizmati

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida korrupsiyaning salbiy oqibatlari, uning kelib chiqish sabablari hamda bartaraf etish masalalari yuzasidan 2019 yil 3-4 iyul kunlari o‘tkazilgan seminar

Joriy yilning 3-4 iyul kunlari Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida O‘zbekiston Respublikasining “Korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonuni hamda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni mazmun-mohiyati yuzasidan ikki kunlik seminar tashkil etildi.

Seminaridan ko‘zlangan asosiy maqsad Agentlik xodimlariga jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy taraqqiyotiga g‘ov bo‘layotgan, salbiy holat bo‘lmish korrupsiya, uning og‘ir oqibatlari haqida ma‘lumot berishdan iborat bo‘ldi.

Ushbu seminarda Toshkent davlat yuridik universiteti “Jinoyat huquqi va kriminologiya” kafedrasida professori G.To‘laganova hamda “Xalqaro ommaviy huquq” kafedrasida o‘qituvchisi B. Xudoyberganov ma‘ruzachi sifatida ishtirok etishdi.

Ma‘ruzachilar o‘z ma‘ruzasida davlat organlari, tashkilotlar hamda fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan fuqarolarning huquqiy ong va huquqiy madaniyatini yuksaltirish orqali korrupsiyaga qarshi kurashishning samaradorligini oshirishga, jamiyatda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan maqsadli chora-tadbirlarni amalga oshirish kerakligi haqida ma‘lumot berib o‘tishdi.

Shu bilan birga, seminar davomida intellektual mulk sohasida ham aholining huquqiy ongi va tushunchasini oshirishga qaratilgan doimiy tarzda targ‘ibot-tashviqot tadbirlarining o‘tkazib borilishi, mazkur sohadagi shaffoflikni, taraqqiyotni ta‘minlanishiga xizmat qilishi ta‘kidlab o‘tildi.

Shuningdek, seminarda “2019-2020 yillarda korrupsiyaga qarshi kurashish davlat dasturida belgilangan vazifa va tadbirlarni amalga oshirilishi yuzasidan Agentlikning chora-tadbirlar rejasi” ishtirokchilar o‘rtasida muhokama qilindi. Tadbir savol-javoblar ko‘rinishida, qizg‘in baxs-munozaralar tarzida o‘tdi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1347/>

Xorazm viloyat Adliya boshqarmasi bilan xamkorlikda “O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk muxofazasi” mavzusida seminar o‘tkazildi.

Joriy yilning 5 iyul' kuni Xorazm viloyat Yuridik kollejida Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi xodimlari bilan hamkorlikda “O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk muxofazasi” mavzusida (Ergasheva F.) shuningdek, “O‘zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqlarini ta'minlash” mavzularida (Allayorov V.) tomonidan ma'ruzalar o‘qildi.

Mazkur o‘quv seminarida tuman (shahar) adliya bo‘limlari, viloyatdagi Davlat xizmatlari markazlari direktorlari, tadbirkorlik sub'ektlari vakillari, shuningdek, ommaviy axborot vositalari xodimlari ishtirok etishdi. Tadbir ochiq muloqot tarzida o‘tkazilib, ishtirokchilar tomonidan soha faoliyati bo‘yicha berilgan savollarga mutaxassislar tomonidan belgilangan tartibda javoblar berildi.

Seminar yakunida yoritib berilgan ma'lumotlarni mustaxkamlash maqsadida ishtirokchilarga soxaga oid buklet va qo‘shimcha materiallar tarqatildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1349/>

Buxoro davlat tibbiyot institutida seminar o‘tkazildi

2019-yil 5-iyul kuni Abu Ali Ibn Sino nomidagi Buxoro davlat tibbiyot institutida "O'zbekistonda intellektual mulkning huquqiy muhofazasi" mavzusida seminar o'tkazildi.

Seminarida institutning professor-o‘qituvchilari va yosh olimlar, shuningdek viloyat adliya boshqarmasi vakillari ishtirok etdi.

Seminarida "IP-CENTER" davlat unitary korxonasi vakili tomonidan intellektual mulkning patentga layoqatliligi, talabnomalar mazmuni va ularni topshirish, IMOga huquqiy muhofazani ta'minlash shartlari to'g'risida ma'ruza qilindi.

Taqdimot yakunida seminar qatnashchilari o'zlarining intellektual mulk sohasiga oid savollariga javoblar olishdi.

Tadbir yakunida taqdimotda olingan bilimlarni mustahkamlash uchun barcha ishtirokchilarga intellektual mulk to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga olgan buklet va materiallar topshirildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1352/>

O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi to'g'risidagi nizom tasdiqlandi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 fevraldagi PQ-4168-son va 1 iyuldagi PQ-4380-sonli qarorlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan joriy yilning 20 iyulida "O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi O'RQ-609-sonli qarori qabul qilindi.

Ushbu Nizomga muvofiq Agentlikning maqomi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, javobgarligini, faoliyatini tashkil etish va hisobot berish tartibini, shuningdek uning rahbarlarining funksional vazifalari va mas'uliyati belgilab berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1356/>

AQSHning Janubiy va Markaziy Osiyo bo'yicha vakolatxonasi delegatsiyasi bilan uchrashuv

2019 yil 24 iyul kuni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi rahbariyati va AQSH savdo vakolatxonasining Janubiy va Markaziy Osiyo bo'yicha vakillari o'rtasida uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda O'zbekistonda intellektual mulkni huquqiy muhofazasi va uni himoya qilish sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish va mustahkamlash, xususan AQShning Umumlashtirilgan imtiyozlar tizimi (Generalized System of Preferences) shartlariga rioya qilish masalalari muhokama qilindi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1357/>

AQSHning Patent va tovar belgilari idorasi tomonidan "Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishda talabnomalar ekspertizasi" mavzusida seminar o'tkazildi

AQSHning Patent va tovar belgilari idorasi tomonidan 2019 yil 25-26 iyul kunlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi mutaxassislari uchun "Tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishda talabnomalar ekspertizasi" mavzusida seminar tashkil etildi.

Seminarida AQSh vakillari Helen Livinski va Nensi Omelkolar tomonidan tovar belgilarining o'ziga xosligi, geografik atamalar va joylar, hammaga ma'lum belgilarni himoya qilish, apellyatsiya tartiblari, e'tirozlar va bekor qilish, shuningdek tovar belgisini ro'yxatdan o'tkazishda talabnomalarni ko'rib chiqish bo'yicha tavsiyalar mavzulari bo'yicha ma'ruzalar qildilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1360/>

Intellektual mulk agentligi rahbarining Samarqand shahri aholisi bilan sayyor qabuli o'tkazildi

Joriy yilning 26 iyul kuni Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi direktori v.v.b. B.T.Sagdullaevning Samarqand shahri aholisi uchun sayyor qabuli o'tkazildi.

Sayyor qabulda qatnashgan Samarqand Oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari, doktorantlari va magistrleri, hamda tadbirkorlari intellektual mulk sohasiga va Agentlik faoliyati bo'yicha bergan o'zlarini qiziqtirgan savollariga qoniqarli javoblar oldilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1362/>

Bolalarning nutq talaffuzini to'g'ri shakllantirish uchun EHM dasturi yaratildi

Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti mutaxassislaridan tomonidan nutqda nuqsonlari bo'lgan yoki nutq funksiyalarini rivojlantirish va qayta tiklash zarur bo'lgan maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarni o'qitish uchun mo'ljallangan dastur yaratildi. Dastur harflar va predmetlar tasvirlari, rangli suratlar, shuningdek so'zlarning audio yozuvlari mavjud bo'lgan ma'lumotlar bazasini o'z ichiga oladi. Ushbu ma'lumotlar logopedlar tajribalariga asoslangan yoki adabiy manbalardan olingan.

Logopedning kompyuter bilan interfeysi operasion tizim tomonidan ta'minlanadi, elementlarni bazadan chaqirish kompyuter ekranini orqali amalga oshiriladi. Logopedning vazifasi - kompyuter ekraniga ma'lumotlar bazasidan elementlarni matn, tasvir shaklida chiqarish va tasvirlash, shuningdek tovush kolonkalarini orqali tasvirlangan narsalarni ovozli eshittirishni o'z ichiga oladi. O'rganuvchi ekrandagi elementlarga mos keluvchi predmetlarni, harflar va tovushlarni ifodalovchi so'zlarni mikrofoniga aytadi, logoped aytilgan so'zlarni to'g'riligini baholaydi va o'qish jarayonida tegishli tuzatishlar kiritadi.

Intellectual mulk agentligi tomonidan dastur mualliflariga DGU 06303-raqamli guvohnoma berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1364/>

Navbatdagi texnologiyalar va innovatsiyalar qo'llab-quvvatlash markazi Samarqandda tashkil etildi

Samarqand shahri Veterinariya meditsinasi institutida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi vakillarining institut rahbariyati bilan uchrashuvi bo'lib o'tdi.

Uchrashuv davomida tibbiyot sohasida bo'lgan Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazini (TIQQM) tuzish masalasi muhokama qilindi. Delegatsiya tashrifi doirasida TIQQMni tashkil etish to'g'risidagi Nizom, Markaz faoliyatini tashkil etish va ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ro'yxati va «IP-CENTER – intellektual mulk sohasida kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish bo'yicha o'quv markazi» hamda Samarqand veterinariya meditsinasi instituti o'rtasida hamkorlik to'g'risida 16/ЦПТИ-sonli bitim imzolandi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1366/>

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligining telegramm boti ishga tushirildi

2019 yil 1 avgustdan Agentlikning @Ipuz_bot rasmiy telegramm boti ishga tushirildi. Ushbu bot foydalanuvchilarga intellektual mulk ob'ektlariga talabnomalar tuzish qoidalari bilan tanishish va talabnomalar topshirish bo'yicha ariza blanklaridan foydalanish imkonini beradi. Telegramm botga @Ipuz_bot havolasi orqali obuna bo'lish mumkin.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1368/>

“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 7-soni nashrdan chiqdi

“Rasmiy axborotnoma” ning 2019 yil 7-sonida quyidagi ma'lumotlar:

- 40 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;
- Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan 450 ta intellektual mulk ob'ektlari, jumladan, 34 ta ixtirolar, 12 ta foydali modellar, 23 ta sanoat namunalari, 217 ta tovar belgilari, 160 ta EHM uchun dasturlar, 2 ta ma'lumotlar bazasi, seleksiya bo'limda o'simlik navlariga va hayvon zotlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan 2 ta talabnoma, o'simlik navlariga va hayvon zotlariga seleksiya yutuqlarining nomlariga 2 ta talabnoma haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi. Shuningdek,
 - sanoat namunalari bo'yicha 2 ta, tovar belgilari bo'yicha 19 ta litsenziya shartnomalari;
 - ixtirolar bo'yicha 1 ta, tovar belgilari bo'yicha 10 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish;
 - EHM uchun dasturlarga bo'lgan barcha mulkiy huquqlardan to'liq voz kechish bo'yicha 1 ta shartnoma haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1377/>

Aplikatsion vositani olish usuli ishlab chiqildi

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademik O.S.Sodiqov nomidagi Bioorganik kimyo instituti mutaxassisleri tomonidan tibbiy amaliyotida operatsiyadan keyingi chandiqlanish jarayonining oldini oluvchi vosita ishlab chiqildi.

Mutaxassislar tomonidan kollagen va karboksimetilsellyuloza asosida yara bitiradigan chandiqliq hosil qilmaydigan materialni olish usuli taklif qilingan bo'lib, bu usul yirik qora mol terilaridan suvli suspenziya ko'rinishidagi kollagen massani ajratib olish, uni karboksimetilsellyuloza va yordamchi modda bilan aralashtirish, qoliplarga quyish va quritishdan iborat.

Ixtiro mualliflari Tupgyn Gulyamov, Nurillo Muydinov, Abdulaxat Atajanov, Shoxsanam Jumaeva, Shavkat Shomurotov, Otabek Radjabov va Abbasxan Turaevlarga IAP 05873 -raqamli patent berildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1378/>

Samarqand viloyatida "Intellectual mulk muhofazasi va himoyasi" mavzusida seminar

2019 yil 8 avgust kuni Samarqand viloyat adliya boshqarmasi katta majlislar zalida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi hamda hududiy adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda "Intellectual mulk muhofazasi va himoyasi" mavzusida seminar bo'lib o'tdi.

Seminarda Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi mas'ul xodimlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari jami 80 nafar ishtirokchi qatnashdilar.

Tadbirning asosiy maqsadi aholi o'rtasida intellectual mulk ob'ektlariga nisbatan hurmat hissini oshirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda ushbu sohani takomillashtirishga mas'ul bo'lgan davlat organlarining o'rni va roli haqida ma'lumot berishga qaratildi.

Seminarda Intellectual mulk agentligi va Intellectual mulk agentligi qoshidagi Intellectual mulk konsultativ markazi mutaxassislari tomonidan mavzuga oid ma'ruzalar va prezentasiyalar qilindi.

Seminar davomida jamiyatda intellectual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqqa nisbatan hurmat bilan qarash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tushunchalar berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida intellectual mulk huquqini muhofaza qilish bo'yicha vakolatli davlat organlari hamda boshqa sub'ektlarning huquq va majburiyatlari bo'yicha masalalar muhokama qilindi.

Tadbir so'ngida Intellectual mulk agentligi tomonidan ishtirokchilarga intellectual mulk sohasidagi tarqatma materiallar, bukletlar tarqatildi.

Seminar qizg'in savol-javoblar asosida konstruktiv ruhda o'tdi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1370/>

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-4380-son qaroriga muvofiq, joriy yilning 14-16 avgust kunlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi xodimlari belgilangan tartibda attestatsiyadan o'tkaziladi.

Attestatsiyaning taxminiy savollari [ro'yxati](#).

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1381/>

"O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida korrupsiyaga qarshi kurash va uni oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar" mavzusida matbuot anjumani bo'lib o'tdi

2019yil 9 avgust kuni Agentlikning majlislar zalida "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida korrupsiyaga qarshi kurash va uni oldini olish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar" mavzusiga bag'ishlangan matbuot anjumani bo'lib o'tdi. Mazkur tadbirda OAV vakillari uchun yurtimizda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi huquqiy munosabatlarni har tomonlama tartibga solish, davlat organlari, tashkilotlar va fuqarolik jamiyati institutlari tomonidan amalga oshirilayotgan korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlar samaradorligini oshirish maqsadida olib borilayotgan izchil islohotlar, shuningdek Agentlik tomonidan bu yo'nalishda amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida ma'ruzalar qilindi.

Shuningdek, tadbirda korrupsiya holatlarining yuzaga kelishiga imkoniyat yaratadigan hozirgi kundagi mavjud muammolar va ularning yechimlari to'g'risida ham fikr yuritildi.

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1382/>

Buxoroda Intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi bo'yicha seminar o'tkazildi

Joriy yilning 9 avgust kuni Buxoro viloyat adliya boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi hamkorligida mamlakatimizda intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvi tizimini takomillashtirish bo'yicha olib borilayotgan islohotlar, intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofazasini ta'minlash bo'yicha "Intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasi" mavzusiga bag'ishlangan seminar o'tkazildi.

Tadbirda Intellektual mulk agentligining mas'ul xodimlari o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etdilar.

Seminar qatnashchilariga jamiyatda intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqqa nisbatan hurmat bilan qarash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tushunchalar berildi va ular o'zlarini qiziqtirgan savollariga ma'ruzachilar tomonidan to'laqonli javoblar oldilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1384/>

Sirdaryo viloyatida “Intellectual mulk ob’ektlarining huquqiy muhofazasi” mavzusida seminar bo‘lib o‘tdi

Joriy yilning 20 avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi hamda Sirdaryo viloyati adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda mamlakatimizda intellectual mulk sohasidagi islohotlar, jamiyatda intellectual mulk ob’ektlariga bo‘lgan huquqqa nisbatan hurmat bilan qarash madaniyatini shakllantirish bo‘yicha “Intellectual mulk ob’ektlarining huquqiy muhofazasi” mavzusida seminar tashkil etildi.

Tadbir ishtirokchilariga Intellectual mulk agentligi vakillari tomonidan Agentlikning asosiy vazifalari, mamlakatimizda muhofaza qilinadigan intellectual mulki ob’ektlari, tovar belgilarining turlari, kontrafakt mahsulotlar to‘g‘risida ma’lumotlar berildi.

Tadbirda ishtirok etgan xududiy boshqaruv organlari, tadbirkorlik sub’ektlari vakillari ularni qiziqtirgan savollaraga batafsil javoblar olishdi. Seminar ishtirokchilariga Intellectual mulk agentligi tomonidan tayyorlangan tarqatma materiallar taqdim etildi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1387/>

AQShning O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi bilan uchrashuv

2019-yil 21-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellectual mulk agentligi rahbariyati va Amerika Qo‘shma Shtatlarining O‘zbekistondagi favqulodda va muxtor elchisi Daniel Rozenblum bilan uchrashuv bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv davomida intellectual mulkni huquqiy muhofazasi, uni himoya qilish sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish va mustahkamlash, xususan, AQSh hamda O‘zbekiston o‘rtasida bu borada amalga oshirilayotgan ishlar muhokama qilindi.

Uchrashuvda ikki davlat o‘rtasida intellectual mulkni himoya qilish sohasida o‘zaro hamkorlikni davom ettirish haqida kelishib olindi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1389/>

Navbatdagi texnologiyalar va innovatsiyalar qo‘llab-quvvatlash markazi Navoiyda tashkil etildi

2019 yil 23 avgust kuni Navoiy shahrida “Navoiy” Erkin iqtisodiy zona” AJ direksiyasida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi vakillarining institut rahbariyati bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv davomida “Navoiy” Erkin iqtisodiy zona” AJ direksiyasi bazasida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash markazini (TIQQM) tuzish masalasi muhokama qilindi. Delegatsiya tashrifi doirasida TIQQMni tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom, Markaz faoliyatini tashkil etish va ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ro‘yxati va «Intellektual mulk konsultativ markazi» DUK hamda “Navoiy” Erkin iqtisodiy zona” AJ direksiyasi o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida 17/ЦПТИ-sonli bitim imzolandi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1391/>

Eng aziz va eng ulug‘ bayram

O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining yigirma sakkiz yilligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda Agentlik rahbariyati tomonidan bu yil intellektual mulk boshqaruvi sohasida tom ma‘noda tub burilish yili bo‘lganligi, xususan, intellektual mulk ob‘ektlarining huquqiy muhofazasi va huquq egalarining huquqlarini muhofaza qilish borasida keng qamrovli ishlar amalga oshirilayotganligi, shu bilan birga Agentlik xodimlarini ijtimoiy-iqtisodiy qo‘llab-quvvatlash, ularning ish sharoitlari darajasi va sifatini yaxshilash borasida muhim ishlar amalga oshirilayotganligi ta‘kidlab o‘tildi.

Tadbir davomida bayram munosabati bilan samarali mehnati, huquq ijodkorligi va huquqni qo‘llash amaliyotini shakllantirishdagi hissasi uchun Agentlik bo‘lim boshlig‘i O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining faxriy yorlig‘i bilan taqdirlandi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1392/>

“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 8-soni nashrdan chiqdi

“Rasmiy axborotnoma” ning 2019 yil 8-sonida quyidagi ma'lumotlar:

- 34 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;
- Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan 410 ta intellektual mulk ob'ektlari, jumladan, 38 ta ixtirolar, 6 ta foydali modellar, 13 ta sanoat namunalari, 227 ta tovar belgilari, 111 ta EHM uchun dasturlar, 3 ta ma'lumotlar bazasi, seleksiya bo'limda o'simlik navlariga va hayvon zotlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan 6 ta talabnoma, o'simlik navlariga va hayvon zotlariga seleksiya yutuqlarining nomlariga 6 ta talabnoma haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi. Shuningdek,
 - sanoat namunalari bo'yicha 1 ta, tovar belgilari bo'yicha 8 ta litsenziya shartnomalari;
 - tovar belgilari bo'yicha 12 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1400/>

“Intellektual mulkka hurmat hissini oshirish” nomli mintaqaviy seminar bo'lib o'tdi

2019 yilning 11-12 sentyabr kunlari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi hamda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) hamkorligida “Intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini oshirish” mavzusidagi subregional seminar bo'lib o'tdi.

Seminarida intellektual mulkka bo'lgan huquqlarni muhofaza qilish, intellektual mulkka nisbatan hurmat hissini shakllantirish masalalari muhokama qilindi.

Tadbirda BIMT mutaxassisleri, Estoniya bosh prokuraturasi prokurori, Belgiyalik advokat, Toshkent davlat yuridik universiteti hamda O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi vakillari quyidagi mavzularda ma'ro'za qildilar:

TRIPS bitimida bayon etilgan soha bilan bog'liq huquqiy, ma'muriy va jinoiy jarayonlar, sud himoyasi, vaqtinchalik va chegaraviy choralar haqida, intellektual mulk huquqlarini qo'llash amaliyoti, IM sohasidagi huquqbuzarliklarni ko'rib chiqish: intellektual mulk huquqlari himoyasi, jamoat manfaati va javobgarlikka tortish, IM sohasidagi huquqbuzarliklarni ta'qib qilish bo'yicha xalqaro hamkorlik, fuqarolarning intellektual mulkka nisbatan hurmatini shakllantirish va kuchaytirishning konseptual asoslari, intellektual mulk tizimidagi BIMTning tutgan o'rni va intellektual mulk huquqlarini qo'llash amaliyoti, Intellektual mulk ob'ektlari muhofazasida bojxonaning o'rni, Intellektual mulk sohasidagi huquqbuzarliklarni bartaraf qilishda strategik hamkorlik va boshqalar.

Seminar mavzusining ayni kundagi dolzarbligi, intellektual mulk sohasida xorijiy tajriba bilan chuqurroq tanishish, mavjud muammolar bo'yicha foydali fikr almashinish sohani istiqbolda yanada rivojlantirish uchun juda muhim ekani seminar ishtirokchilari tomonidan alohida ta'kidlandi.

Seminarida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Savdo-sanoat palatasi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi kabi respublikamizning qator manfaatdor idora va tashkilotlarining vakillari hamda mutaxassislari ishtirok etdilar. Shuningdek, tadbirga ommaviy axborot vositalari vakillari ham taklif etildilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1402/>

Intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofazasini ta'minlashga doir tadbirlar

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 1 iyuldagi "O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4380-son Qarori bilan Adliya vazirligining hududiy bo'linmalariga intellektual mulk ob'ektlarining huquqiy muhofaza qilinishini ta'minlash hamda aholi o'rtasida intellektual mulk sohasida huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha qo'shimcha bir qator vazifalar yuklatilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan intellektual mulk muhofazasiga doir navbatdagi huquqiy seminarlar joriy yilning 16-17 sentyabr kunlari Namangan va Farg'ona viloyatlari adliya boshqarmalarida o'tkazildi.

Seminarida yuqoridagi Qarorda belgilangan vazifalar mohiyati bilan birgalikda hududlardagi korxonalar, muassasa va tashkilotlarga intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilishni ta'minlash bo'yicha konsultativ va amaliy ko'maklashish masalalariga ham alohida e'tibor qaratildi. Tadbirlarda nafaqat adliya organlari xodimlari balki tadbirkorlik sub'ektlari, bojxona, soliq, monopoliyaga qarshi kurashish organlari, axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat bo'yicha davlat inspeksiyasi va boshqa intellektual mulk himoyasiga daxldor tashkilotlar xodimlari va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdilar.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1405/>

USAIDning O‘zbekistondagi sud-huquq islohoti dasturi bo‘yicha tadbirlar

Joriy yilning 23-27 sentyabr kunlari USAIDning O‘zbekistondagi sud-huquq islohoti dasturi doirasida Agentlik rahbar va mutasaddi xodimlari hamda soha bilan bevosita bog‘langan boshqa tashkilot vakillari uchun seminar-trening o‘tkazilmoqda. Seminarda Yevropaning bir qator nufuzli tashkilotlarida faoliyat yuritgan Sloveniyalik intellektual mulk sohasi bo‘yicha malakali ekspert – professor doktor Bojan Pretnar xorijiy intellektual mulk idoralari faoliyati, sohadagi qonunchilik asoslari, mualliflik huquqi va unda jamoat tashkilotlarining o‘rni, shuningdek intellektual mulk sohasini rivojlantirish bo‘yicha ma‘ruzalari bilan qatnashmoqda.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1407/>

“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 9-soni nashrdan chiqdi

“Rasmiy axborotnoma” ning 2019 yil 9-sonida quyidagi ma'lumotlar:

- 36 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;
- Davlat reestrda ro‘yxatdan o‘tkazilgan 335 ta intellektual mulk ob'ektlari, jumladan, 38 ta ixtirolar, 7 ta foydali modellar, 11 ta sanoat namunalari, 182 ta tovar belgilari, 93 ta EHM uchun dasturlar, 2 ta ma'lumotlar bazasi, seleksiya bo'limda o'simlik navlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan o'simlik navlariga va hayvonlar zotlarining Davlat reestrlari ro'yxatidan o'tkaziladigan 2 ta o'simliklar navlari haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Shuningdek,

- tovar belgilari bo'yicha 30 ta litsenziya shartnomalari;
- tovar belgilari bo'yicha 13 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1411/>

Navbatdagi texnologiyalar va innovatsiyalar qo‘llab-quvvatlash markazi O‘zbekiston milliy universitetida tashkil etildi.

2019 yil 11-oktyabr kuni M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetida O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi delegatsiyasi va universitet rahbariyati bilan uchrashuvi bo‘lib o‘tdi. Uchrashuv davomida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash markazini tuzish masalasi muhokama qilindi. Delegatsiya tashrifi doirasida TIQQMni tashkil etish to‘g‘risidagi Nizom, Markaz faoliyatini tashkil etish va ta‘minlash bo‘yicha chora-tadbirlar ro‘yxati va «Intellektual mulk consultativ markazi» hamda M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti o‘rtasida hamkorlik to‘g‘risida 18/ЎПТИ-sonli bitim imzolandi.

Tadbir doirasida M.Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universitetida "O'zbekistonda intellektual mulkning huquqiy muhofazasi va Texnologiyalar va innovatsiyalarni qullab-quvvatlash markazlarning intellektual mulk sohasida roli" mavzusida seminar o'tkazdi. Seminarda universitetning professor-o‘qituvchilari va yosh olimlari ishtirok etdi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1418/>

Intellektual mulk sohasida manfaatli hamkorlik

Kuni kecha Moskva shahrida «Jamiyatning ilmiy-texnikaviy taraqqiyotida intellektual mulkning roli» mavzusida XXIII xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tdi.

Anjumanda Jahon intellektual mulk tashkiloti, Yevropa patent mahkamasi, Yevroosiyo patent mahkamasi hamda yigirmadan ortiq mamlakat milliy patent ofislarining 500 dan ortiq ishtirokchilari qatnashdi.

Ahamiyatlisi, seksiyalarga bo‘lingan tazda 100 dan ortiq ma‘ruzachilar orasida O‘zbekiston vakillari «Raqamli muhitda mualliflik huquqi: yangicha yondashuv» mavzusidagi seksiyada «O‘zbekistonda mualliflik va turdosh huquqlar himoyasi sohasida islohotlar» mavzusida ma‘ruza qilib, ishtirokchilarda yorqin tassurot qoldirishdi.

Shuningdek, xalqaro konferensiya yakunida Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi direktor o‘rinbosari Bahodir Sagdullayev Rossiya Intellektual mulk federal xizmati markaziy apparati, Sanoat mulki federal instituti (ФИПС) tarkibiy tuzilmasi, qonun ijodkorligi, talabnomalarni ekspertizadan o‘tkazish amaliyoti bilan yaqindan tanishdi. Xususan, Rossiya Intellektual mulk federal xizmati (Rospatent) rahbari Grigoriy Ivliyev bilan o‘zaro manfaatli hamkorlik hamda istiqboldagi rejalar to‘g‘risida muloqot olib borishdi.

Bahodir Sagdullayev, Intellektual mulk agentligi direktor o‘rinbosari:

— Muloqot davomida Rospatentning talabnoma ekspertiza muddatlarini qisqartirish, mutaxassislar malaka almashinuvi, Yevroosiyo patent tashkilotiga a'zo bo'lgan mamlakatlar o'rtasida yagona tovar belgisini joriy qilish istiqbollari, ikki davlat o'rtasida intellektual mulk ob'yektlarining noqonuniy foydalanuvini nazorat qilish va cheklash, patent trollingidan himoyalaniş mexanizimini ishlab chiqish kabi ustuvor vazifalar muhokama qilindi.

Ayniqsa, bugungi zamonaviy tendensiyada mualliflik ishlanmalarni himoya qilish muhim vazifa sanaladi. Sababi har qanday himoyasiz ixtiro tashqi kuchlar oldida zaif bo'lib, trollingga uchraydi. Shuning uchun oldimizda patentlar himoyasini kuchaytirish vazifasi muhim ahamiyat kasb etadi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1423/>

Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida seminar o'tkazildi

2019-yil 24-oktyabr kuni O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi Toshkent vrachlar malakasini oshirish institutida "O'zbekistonda intellektual mulkning huquqiy muhofazasi. Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazlarning intellektual mulk sohasida roli" mavzusida seminar o'tkazildi.

Seminarda institutning professor-o'qituvchilari va yosh olimlari ishtirok etdi.

Seminarda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi Intellektual mulk agentligining vakili tomonidan intellektual mulkning patentga layoqatliligi, talabnomalar mazmuni va ularni topshirish, IMOga huquqiy muhofazani ta'minlash shartlari to'g'risida ma'ruza qilindi.

Taqdimot yakunida seminar qatnashchilari o'zlarining intellektual mulk sohasiga oid savollariga javoblar olishdi.

Tadbir yakunida taqdimotda olingan bilimlarni mustahkamlash uchun barcha ishtirokchilarga intellektual mulk to'g'risidagi axborotlarni o'z ichiga olgan buklet va materiallar topshirildi.

Axborot xizmati

KPMG vakillari bilan uchrashuv

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi, Bosh prokuratura va Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot dasturining birgalikdagi tashabbusi bilan «O'zbekistonda boshqaruvning samarali, hisobdor hamda shaffof institutlari orqali korrupsiyaga qarshi kurashish» loyihasi doirasida xalqaro KPMG kompaniyasi mutaxassislari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirdan ko'zlangan maqsad xalqaro KPMG kompaniyasi vakillarini jalb qilgan holda Adliya vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish «komplaens nazorat» tizimini joriy qilishdan iborat.

Uchrashuvda xalqaro KPMG kompaniyasining O'zbekistondagi idorasi direktori Irina Burdikova va Intellektual mulk agentligi direktori To'lqin Abdusattorov agentlik faoliyatida korrupsiogen faktorlarni bartaraf etish, agentlik mas'ul xodimlarining mansabini suiste'mol qilishini oldini olish va boshqa masalalarda muloqot olib borishdi.

Ta'kidlanganidek, komplaens nazorat korrupsiogen xatarlarni boshqarish va ularni bartaraf etishga imkon beruvchi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimini qo'llash bo'lib, bu korrupsiogen faktorlarga ichki nazorat orqali chek qo'yishni anglatadi.

Korrupsiyaga oid huquqbuzarliklar sodir etilishining sabab va sharoitlarini aniqlash va oldini olish bo'yicha idoraviy strategiyalarning (komplaens-nazorat) ishlab chiqilishi qayd etilgan sohalarida manfaatlar to'qnashuvini oldini olish, mansabni suiiste'mol qilish orqali jinoyatga qo'l urishning oldini olish hamda profilaktikaning muhim elementi sifatida belgilanadi.

Uchrashuv so'nggida qatnashuvchilar agentlik tizimida mavjud bo'lgan komplaens-nazorati mexanizmlari haqida fikr almashishdi.

Axborot xizmati

Agentlik vakillari “INNOWEEK – 2019” innovatsion g'oyalar haftaligida ishtirok etishdi

“O'zekspomarkaz” milliy ko'rgazmalar zalida boshlangan “INNOWEEK-2019” Innovatsion g'oyalar haftaligining birinchi kunida bir qator muhim tadbirlar o'tkazilishi belgilangan.

Jumladan, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi vakillari “Innovatsiyalar va texnologiyalar transferida intellektual mulkning ahamiyati” mavzusidagi mintaqaviy seminarda ishtirok etishdi.

Shuningdek, Innovatsion rivojlanish vazirligi tomonidan tashkil etilgan “INNOWEEK-2019” haftaligida Xalqaro innovatsion-investitsion forum, IRC Xalqaro robototexnika chempionati, Osiyo-Tinch okeani texnologiyalar transferi markazi bilan hamkorlikda tashkil etilgan “Innovatsiyalar va texnologiyalar

transferida intellektual mulkning ahamiyati” mavzusidagi mintaqaviy seminar, “Innovatsion g’oyalar yetakchisi” ko’krak nishoni sovrindorlarini taqdirlash marosimi, “Future Foresight” seminar-treninglar va boshqa tadbirlar bo’lib o’tmoqda.

E’tiborlisi, haftalik doirasida raqamli va axborot texnologiyalari sohasidagi ilm-fan yutuqlaridan tortib, qurilish, energetika va texnika, neft-gaz va yengil sanoat sohaslarida, sog’liqni saqlash va tibbiyot, qishloq xo’jaligi, kimyo-biologiya yo’nalishidagi ilm-fan yutuqlari ixtirochilar tomonidan taqdim etildi.

Qayd etish joiz, “INNOWEEK – 2019” haftaligida 30 dan ortiq mamlakatdan 6 mingga yaqin innovatsion g’oya mualliflari, tadqiqotchilar ishtirok etmoqda. Eng muhimi, tadbirning nufuzi, ahamiyati sifat bo’yicha ham sezilarli darajada oshgani yaqqol namoyon bo’ldi.

O’zbekistonning eng so’ngi innovatsion yutuqlari namoyish etilayotgan haftalik

1 noyabrga qadar davom etadi.

Turli sohadagi ixtirolar va ilm-yutuqlari bilan foto jamlanmada tanishishingiz mumkin.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1428/>

Intellektual mulk muhofazasi dolzarb vazifa

Navoiy viloyat adliya boshqarmasida O’zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi hamda hududiy adliya boshqarmasi bilan hamkorlikda “Intellektual mulk muhofazasi va himoyasi” mavzusida seminar bo’lib o’tdi.

Seminarda Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi mas’ul xodimlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari ishtirok etishdi.

Ta’kidlanganidek, aholi o’rtasida intellektual mulk ob’ektlariga nisbatan hurmat hissini oshirish, huquqiy madaniyatni shakllantirish hamda ushbu sohani takomillashtirish katta ahamiyatga ega.

Abdujalil O‘rinboyev, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi bo‘lim boshlig‘i:

Ma’lumki, yoshi ulug‘ keksalarimiz yoshlarni o‘zganing mulkini hurmat qilish, bironing haqqiga xiyonat qilmaslik ruhida tarbiyalab kelishadi. Intellektual mulk ham bir shaxsning ilmiy izlanishlari orqali yaratgan ixtirosi yoki ijod mahsuli bo‘lib, bunda mulk huquqi yaratuvchiga tegishli bo‘ladi. Ixtirochi o‘z mahsulotini uni tegishli davlat idorasida patentlash orqali unga egalik huquqini qo‘lga kiritadi. Shuni unutmaslik kerakki, faqatgina patentga ega bo‘lgan yaratmalarni muhofaza etish va baxsli vaziyatlarda mulk huquqini o‘rnatish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 2 iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi faoliyatini

tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorida Agentlikning asosiy vazifalaridan biri etib intellektual mulk sohasida yagona davlat siyosatining amalga oshirilishini ta'minlash, ixtirolar, foydali modellar, sanoat namunalari, tovar belgilari va boshqa intellektual mulk ob'ektlarini huquqiy muhofaza qilish, aholi o'rtasida intellektual mulk muhofazasi sohasida huquqiy madaniyatni oshirish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini tashkillashtirish va o'tkazish belgilangan. Shuningdek, Intellektual mulk agentligi bosh mutaxassisi Oybek Sayidumarov "Mualliflik huquqini muhofaza qilish masalalari" mavzusida ma'lumotlar berib o'tdi.

Seminar davomida jamiyatda intellektual mulk ob'ektlariga bo'lgan huquqqa nisbatan hurmat bilan qarash madaniyatini shakllantirishga qaratilgan tushunchalar berildi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida intellektual mulk huquqini muhofaza qilish bo'yicha vakolatli davlat organlari hamda boshqa sub'ektlarning huquq va majburiyatlari bo'yicha masalalar muhokama qilindi. Tadbir so'ngida Intellektual mulk agentligi tomonidan ishtirokchilarga intellektual mulk sohasidagi tarqatma materiallar, bukletlar tarqatildi.

Seminar qizg'in savol-javoblar asosida, konstruktiv ruhda o'tdi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1430/>

«LexisNexis» vakili bilan uchrashuv

Adliya vazirligi huzuridagi intellektual mulk agentligida axborot xizmatlari sohasida faoliyat yurituvchi va ko'p tarmoqli axborotlar bazasidan onlayn kirishni ta'minlovchi xalqaro «LexisNexis» kompaniyasi vakili bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvda agentlik xodimlari intellektual mulk sanalgan ixtirolar va foydali modellar, sanoat ishlanmalari, axborot dasturlari va boshqalarga patent berish jarayonida talabnomalarni maxsus qidiruv dasturlarida solishtirish imkonini beruvchi axborot bazalari haqida fikr almashishdi.

Tadbir davomida «LexisNexis» xalqaro kompaniyasi Moskva shahridagi filiali direktori Marat Almaganbetov ishtirokchilarga "Lexis.com" axborotlar bazasi haqida ma'lumot berdi. Jumladan, ma'lumotlar bazasidan AQSH, Buyuk Britaniya, Yevroittifoq a'zo davlatlari, Osiyo va Afrika mintaqasi davlatlariga tegishli huquqiy hujjatlar o'rin olgan bo'lib, u intellektual mulk, xalqaro huquq va xalqaro biznes, xalqaro savdo munosabatlari, arbitraj, atrof-muhit va sog'lik, inson huquqlari, soliq siyosati kabi bo'limlardan tashkil topgan.

Birgina intellektual mulk sohasiga tegishli "TotalPatent" axborotlar bazasidan 111 patent beruvchi tashkilotlarning 130 mln.dan ortiq hujjatlari jamlangani, bu esa talabnomani solishtirishda qulaylik tug'dirishi qayd etildi.

Ishtirokchilar uchrashuv davomida talabnomalarning qidiruv afzalliklari, tezkorligi, aniqligi yuzasidan va ba'zi kamchiliklari to'g'risida muloqot qilishdi.

Boburxon Abbosov, Intellektual mulk agentligi Sanoat namunalari bo'limi mutaxassisi:

— Intellektual mulk uchun patent olish jarayonida qidiruv bazalari alohida ahamiyatga ega. “TotalPatent” ma'lumotlar bazasining menga yoqqan jihati unda mamlakatlar kesimida qanday turdagi intellektual mulk huquqiga talabnomalar tushishi, yirik korporatsiyalarning ko'proq qaysi yo'nalishdagi patentlarga talabnoma berishi ayniqsa, butun dunyo bo'yicha eng ilg'or sohalardagi talabnomalar tahlili chuqur olib borilishidir. Biroq dasturning kamchiligi qidiruv faqatgina ingliz tilida olib borilishida bo'lib, bu qidiruvda ayrim juz'iy xatoliklarga olib kelishi mumkin.

Uchrashuv yakunida agentlik mutaxassislari o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1431/>

Tovar belgisi - kompaniya imiji

Toshkent davlat yuridik universitetida Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi tomonidan “Intellektual mulkda tovar belgilarini himoya qilish mavzusida” mahorat darsi o'tkazildi.

Mazkur uchrashuv universitetning magistratura bosqichi talabalari uchun “Intellektual mulk huquqi” fani doirasida bo'lib o'tdi.

Mahorat darsida agentlikning mas'ul xodimi talabalarga tovar belgisining ahamiyati, intellektual mulkni himoya qilish tartibi, patent berish shartlari va muddati haqida batafsil ma'lumot berdi.

Abdujalil O'rinboev, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi bo'lim boshlig'i:

— Bugungi kunda har qanday tadbirkor korxonasi nomi va mahsulotini yoki xizmatlarini raqobatchilari o'rtasida ajralib turishidan, mahsuloti brendga aylanishidan manfaatdordir. Bu savdo hajmini ham tovar, ham xizmatlar sifatida oshishiga imkon beradi. Shu sababli tovar belgisining originalligi juda muhim. Shunday tovar belgilari borki ular kompaniya nufuzini ifodalab, omma orasida juda taniqlidir. Jumladan, Apple, Google, Microsoft, Burberry, Christian Louboutin, Caterpillar, Nike, Adidas va boshqalar tovar belgisi tufayli yuqori imijga ega bo'lib, daromadining asosiy qismi tovar belgisi hissasiga to'g'ri keladi.

Qayd etish joiz, biznes sohasiga qadam qo'ygan tadbirkor mahsulotlar markirovkalanadigan tovar belgisi to'g'risida oldindan qayg'urishi juda muhim. Belgini ro'yxatdan o'tkazish tartibi birmuncha vaqtni oladi, ro'yxatdan o'tkazish tugaguniga qadar kompaniya firma nomi bilan ishlashi mumkin, belgini reklama qilishni esa ro'yxatdan o'tkazish jarayonida ham boshlashi mumkin.

Shuningdek, talabalar O'zbekiston Respublikasining «Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida»gi qonun mazmun-mohiyatini muhokama qilishdi.

Ta'kidlanganidek, tovar belgisining egasi tovar belgisidan guvohnomada ko'rsatilgan tovarlarga nisbatan foydalanish va uni tasarruf etish mutlaq huquqiga ega va tovar belgisiga egalik guvohnomaning amal qilish muddati davrida amalga oshirilib, mutlaq huquq Agentlikning rasmiy axborotnomasida e'lon qilingan sanadan e'tiboran amal qiladi.

Mahorat darsida tovar belgisini tasdiqlash uchun rasmiy ekspertizadan o'tkazish tartibi, tovar belgisiga egalik huquqi buzilish holatlari haqida batafsil ma'lumot berildi.

Uchrashuv qizg'in savol-javoblarga boy tarzda o'tib, talabalar o'z bilimlarini mustahkamlab olishdi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1433/>

“Rasmiy axborotnoma” byulletenining 2019 yil 10-soni nashrdan chiqdi

“Rasmiy axborotnoma” ning 2019 yil 10-sonida quyidagi ma'lumotlar:

- 52 ta ixtirolarga talabnomalar haqidagi;

- Davlat reestrda ro'yxatdan o'tkazilgan 343 ta intellektual mulk ob'ektlari, jumladan, 42 ta ixtirolar, 7 ta foydali modellar, 12 ta sanoat namunalari, 174 ta tovar belgilari, 95 ta EHM uchun dasturlar, 2 ta ma'lumotlar bazasi, seleksiya bo'limida o'simlik navlariga O'zbekiston Respublikasi patentini berish uchun qabul qilingan 6 ta talabnoma, o'simlik navlariga seleksiya yutuqlarining nomlariga 6 ta talabnoma, o'simliklar navlari va hayvonlar zotlarining, Davlat reestrlari ro'yxatidan o'tkazilgan 5 ta o'simliklar navlari haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Shuningdek,

- ixtirolar bo'yicha 1 ta litsenziya shartnomalari;

- sanoat namunalari bo'yicha 1 ta, tovar belgilari bo'yicha 9 ta huquqlarni boshqa shaxsga o'tkazish to'g'risidagi shartnomalar haqidagi ma'lumotlar nashr qilindi.

Axborot xizmati

Mualliflik va turdosh huquqlar himoyasi

Boku shahrida Ozarbayjon Respublikasi Intellektual mulk agentligi va Butunjahon intellektual mulk tashkiloti hamkorligida “Mualliflik va turdosh huquqlarni jamoaviy asosda boshqarish” mavzusida mintaqaviy seminar tashkil etildi.

Seminar ishida BIMT, Ozarbayjon, Qozoğiston, Qirğiziston, Tojikiston, Turkmaniston, Turkiya, O'zbekiston Respublikasidan intellektual mulk bo'yicha mas'ul davlat idoralari mutaxassisleri ishtirok etishdi.

Seminarda internet tizimida mualliflik huquqlari himoyasi, mulkiy huquqlarni jamoaviy asosda boshqaruvchi tashkilotlarning mintaqaviy faoliyati va bunda mas'ul davlat idoralarning tutgan o'rni, bunday tashkilotlarning mutaxassislarini o'qitish va malakalarini oshirish hamda BIMT tomonidan jamoaviy tashkilotlarga doir texnik yordam ko'rsatish masalalari muhokama qilindi.

Abdumo'min Yuldashov, Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi bo'lim boshlig'i:

— Raqamli texnologiyalar, shu jumladan internetning jadal rivojlanishi barcha davlatlarning intellektual mulk tizimiga jiddiy ta'sir korsatmoqda va bir paytning o'zida raqamli muhitda intellektual mulkka bo'lgan huquqlarning samarali muhofazasi va himoyasi sohasida ham jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Ma'lumki, mualliflik huquqiga tegishli ko'p turdagi ob'ektlarning (adabiy va musiqa asarlari, filmlar, muzey kolleksiyalari) raqamli formatga o'tkazilishi, intellektual mulkning internetda keng targ'ib qilish imkonini berdi.

Bunday sharoitda mualliflik huquqi va turdosh huquqlarga oid fundamental prinsiplarning raqamli muhitda amalga oshirilishi alohida ahamiyat kasb etadi, bu esa o'z navbatida intellektual mulk muhofazasiga, bu sohada huquqbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlarning kuchaytirilishini talab qiladi.

Seminarda aynan shu masalalarga, ya'ni mualliflik huquqi va turdosh huquqlarning huquqiy muhofazasi, raqamli muhitda kontrafaksion va qaroqchilikka qarshi kurashish masalalariga, shuningdek bu sohada tajriba almashishga qaratildi.

Axborot xizmati

Toshkent Davlat texnika universitetida yangi markaz ochildi

Kuni kecha Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universitetida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi delegatsiyasi hamda universitet rahbariyati, ilmiy-xodimlari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Tadbirni kirish so'zi bilan Toshkent Davlat texnika universiteti rektori Sadritdin Turabdjano'v ochib, agentlik hamda universitet o'rtasida hamkorlik o'rnatilishi ixtirolar va ishlanmalarga talabnoma to'ldirilishida xatoliklarni kamaytirishga, patent olish jarayonini yanada soddalashtirishga, talaba-olim va ilmiy xodimlarning yaratuvchanlik qobiliyatini rag'batlantirishga xizmat qilishini ta'kidladi.

Uchrashuv davomida Toshkent Davlat texnika universitetida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazi (TIQQM) ochildi hamda yig'ilganlarga markaz faoliyati haqida ma'lumot berildi.

Sagdullaev Baxodir, Intellektual mulk agentligi direktor o'rinbosari:

— Ma'lumki universitet ilmiy salohiyati juda yuqori bo'lib, bunga talabalar va ilmiy xodimlarning ilm-fanni rivojlantirish yo'lida olib borayotgan izlanishlari yaqqol misol bo'ladi. Albatta izlanish bor joyda taraqqiyot bo'ladi, ilm-fan rivojlanadi. Bizning maqsadimiz ham universitet qoshida Texnologiyalar va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash markazining tashkil etish orqali ilmiy xodimlarning izlanishlari, ixtirolar yaratilishida ham amaliy ham nazariy ko'mak berish bilan birga, ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va boshqa xildagi innovatsion faoliyati natijalari uchun patent olishda barcha turdagi hujjat ishlarini rasmiylashtirishda ko'mak berishdan iborat.

Delegatsiya tashrifi doirasida TIQQMni tashkil etish to'g'risidagi Nizom, Markaz faoliyatini tashkil etish va ta'minlash bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqildi.

Shuningdek tadbir doirasida, Intellektual mulk agentligi bo'lim boshlig'i Abdujalil O'rinboev "O'zbekistonda intellektual mulk muhofazasi" mavzusida ma'ruza qilib, yurtimizda intellektual mulkni muhofaza qilishga qaratilgan qonun hujjatlari, intellektual mulkni muhofaza qilish ahamiyati va dolzarbligi haqida ma'lumot berib o'tdi.

Tadbir yakunida universitet xodimlari patent olish uchun talabnoma materiallarini rasmiylashtirish, patentlarni xalqaro muhofaza qilish kabi o'zlarini qiziqtirgan savollarga javob olishdi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1438/>

Diqqat e'lon! Ommaviy axborot vositalari xodimlari diqqatiga!

2019 yil 13-14 noyabr kunlari soat 10-00 da «**Miran International hotel**» mehmonxonasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi hamda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti hamkorligida "Intellektual mulk strategiyasi va innovatsion rivojlanish" mavzusi bo'yicha mintaqaviy seminarda ishtirok etish uchun taklif etamiz! Mazkur mavzu yuzasidan batafsil ma'lumotga ega bo'lish hamda agentlik faoliyatiga doir o'zingizni qiziqtirgan savol bo'lsa, Biz Siz bilan doimo muloqot qilishga tayyormiz.

Manzil: Toshkent sh., Shahrisabz ko'chasi, 4.

Bog'lanish uchun telefon: 71 232-50-06

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1439/>

Intellektual mulk himoyasi O'zbekistonning bojsiz savdo imtiyozlari saqlanishini ta'minladi

Joriy yilning noyabr oyi boshida AQSh Prezidentining Ijroiya idorasi huzuridagi Savdo vakillik idorasi (USTR) Umumiy imtiyozlar tizimi (GSP) ning O'zbekistonga qo'llanishini to'xtatish yuzasidan olib borilgan tinglovlarni tugatish to'g'risida qaror qabul qildi, deb xabar beradi TIV axborot xizmati.

AQShning Umumiy imtiyozlar tizimi (GSP — Generalized System of Preferences) 1974 yilda Savdo to'g'risidagi qonun doirasida tashkil etilgan. Dastur rivojlanayotgan mamlakatlar uchun bir qator mahsulotlarini AQShga import qilishda bojsiz sotish uchun savdo imtiyozlarini taqdim etishni nazarda tutadi. O'zbekistonga 1994 yil avgust oyida UITda benefitsiar (AQShga tovar mahsulotlarni bojsiz yetkazish huquqi) maqomi taqdim qilingan edi.

Eslatib o'tamiz, 2018 yil noyabr oyida O'zbekistonning AQShdagi elchixonasi vakillari AQShning Savdo vakillik idorasi tomonidan Ishchilar huquqlari bo'yicha xalqaro forum (ILRF) va Xalqaro intellektual mulk alyansi (IIPA) nodavlat tashkilotlarining murojaatlari bo'yicha boshlangan tinglovlarda ishtirok etgan. Da'vo arizasida ishchilar huquqlarining buzilishi va intellektual mulk huquqlarining yetarli darajada himoyasi ta'minlanmaganligi vaj qilib ko'rsatilib, O'zbekistonga nisbatan UIT rejimining to'xtatilishi talab qilingan.

Tomonlarning arizalari va taqdim etilgan hujjatlar ko'rib chiqilgandan so'ng, Amerika Qo'shma Shtatlari Savdo vakillik idorasi O'zbekistonning boj olinmaydigan savdo imtiyozlari saqlanishini va intellektual mulk bo'yicha muhokamalarni yopishga qaror qildi.

AQSH Savdo vakillik idorasi O'zbekiston intellektual mulkni himoya qilishning huquqiy rejimini takomillashtirish bo'yicha ko'rilgan muhim qadam, jumladan O'zbekistonning 1971 yilda "Fonogramma ishlab chiqaruvchilarning

manfaatlarini himoya qilish to'g'risida”gi konvensiyasiga va 1996 yilda BIMTning “Mualliflik, ijro va fonogrammalar tog’risida”gi shartnomalariga qo'shilganini inobatga olgan holda eshituv jarayonini yopiq deb topishga qaror qilgan.

Shuningdek, AQSh Prezidenti ma'muriyati vakillari 2018 yil oktyabrda Toshkentda bo'lib o'tgan Markaziy Osiyova AQSh mamlakatlari o'rtasida savdo va investitsiyalar bo'yicha doiraviy bitim Kengashi yig'ilishida O'zbekistonning mualliflik huquqi masalasida siyosiy e'tiborning yuqori darajada ekanligi, xususan, intellektual mulk bo'yicha Markaziy Osiyo ishchi guruhni yaratishda faollik ko'rsatganini alohida e'tirof etishdi.

O'z navbatida AQSh Savdo vakillik idorasi tomonidan quyidagi boyonot yangradi: "Biz ushbu ijobiy o'zgarishlar O'zbekistonda intellektual mulk huquqlarini himoya qilish va amalga oshirish nuqtai nazaridan keskin burilish nuqtasi ekanligiga ishonamiz. Biz O'zbekistondagi sarmoyaviy muhitni yaxshilash maqsadida ushbu ijobiy qadamlar va sa'y-harakatlarni qo'llab-quvvatlaymiz va bu borada boshlangan hamkorlikni davom ettiramiz".

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1441/>

Intellektual mulk milliy strategiyasi soha rivojida bosh omil

Toshkent shahrining «Miran International hotel» mehmonxonasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi hamda Butunjahon intellektual mulk tashkiloti (BIMT) hamkorligida “Intellektual mulk strategiyasi va innovatsion rivojlanish” mavzusi bo'yicha ikki kunlik mintaqaviy seminar o'tkazilmoqda.

Mazkur yirik anjumanda BIMT ekspertlari, Buyuk Britaniya va Polsha kabi jami 13 ta mamlakatning intellektual mulk bo'yicha mas'ul davlat organlari mutaxassislari ishtirok etishdi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, sohaga bevosita aloqadar Innovatsion rivojlanish vazirligi, Davlat bojxona qo'mitasi, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, Fanlar akademiyasi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, sud organlari, oliy ta'lim muassasalari hamda OAV vakillari qatnashishdi.

Seminarining maqsadi BIMT xalqaro standartlarini milliy qonunchilikka implementatsiya qilish, sohaga doir xalqaro shartnomalar normalarini milliy qonunchilikka tatbiq etish va intellektual mulk muhofazasini ta'minlash, kontrafakt mahsulotlarga qarshi kurashish tizimini takomillashtirish masalalarini muhokama qilish va shu orqali intellektual mulk milliy strategiyasining asosiy yo'nalishlarini ishlab chiqishdan iborat.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda inson kapitalidan samarali foydalanish, yaratilgan intellektual mulk ob'ektlarini tijoratlashuv jarayoniga keng joriy etish va sohani iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylantirish jahonning iqtisodiyoti rivojlangan davlatlari uchun eng muhim ko'rsatkichlardan biridir. Barchamizga ma'lumki, mahsulot qadog'idan o'rin egallagan birgina tovar belgisi yirik

kompaniya hattoki davlatning qiyofasini gavdalantirishi mumkin. Misol sifatida Rolex, Nike, Adidas, Apple, Toyota, Mercedes Benz va boshqalarni keltirish mumkin.

Ahamiyatlisi, rivojlangan davlatlarda intellektual mulk qishloq xo'jaligini siqib chiqarib, yangi davrni boshlab bermoqda. "Aqlli mashina", "aqlli uy", "xavfsiz shahar" kabi atamalar hayotimizga tobora chuqur kirib kelmoqda. Turli ixtiro va ishlanmalar insonlar hayotiga qulayliklar olib kirmoqda.

Ko'pincha Singapur, Janubiy Koreya, Yaponiya kabi mamlakatlar iqtisodiy taraqqiyoti haqida so'z ketganda ko'z oldimizga aynan innovatsion iqtisodiyot keladi. Buning zahirida albatta novatorlik faoliyati, intellektual mulk ob'ektlarining yaratilishi va muhofazasi bilan bog'liq jarayonlar yotadi. Ayniqsa, tabiiy resurslar taqchilligi kuzatilayotgan davrda intellektual mulk strategiyasini qo'llash iqtisodiy tang ahvoldagi mamlakatlarning yagona chorasi bo'lib qolmoqda. Intellektual mulk milliy strategiyasi turli ixtiro va innovatsion ishlanmalar va xizmatlarning huquqiy muhofazasini ta'minlash hamda uni rag'batlantirish orqali mamlakatning barcha bo'g'inlarida innovatsion rivojlanishga turtki berishni asosiy maqsad etib belgilashi lozim. Shuningdek, ishtirokchilar intellektual mulk sohasida samarali himoya tizimi yaratilmas ekan, milliy strategiyada innovatsion rivojlanishni ta'minlash mumkin emasligiga e'tibor qaratishdi.

Seminar ishtirokchilari o'z tajribalari bilan o'rtoqlashgan holda savol-javob va qizg'in muhokamalar olib borishdi. Seminar ishi davom etmoqda.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1443/>

Investitsion jozibadorlik qanday mezonlar bilan o'lchanadi?

"Intellektual mulk strategiyasi va innovatsion rivojlanish" mavzusi bo'yicha seminarning ikkinchi kunida ishtirokchilar intellektual mulk sohasida milliy strategiya ishlab chiqish, uning investitsion jozibadorlikni oshirishdagi ahamiyati hamda intellektual mulkni himoyalash yuzasidan O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar bo'yicha tajriba almashishdi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida investitsiyalar va intellektual mulk himoyasi ta'minlanganlik darajasi har qanday investor uchun juda muhim. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatmoqdaki, intellektual mulk himoyasi davlatda investitsiya oqimi ko'payishi va mamlakatga sarmoya kiritish xavfsizligi bo'yicha xalqaro indekslarda yuqori pog'onani egallashida katta ahamiyatga ega. Sababi har qanday investor o'z mahsuloti raqobatbardoshligini ta'minlash va qalbakilashtirishdan himoyalanganiga ishonch hosil qilishi uchun mamlakatda kuchli qonunchilik tizimi bo'lishi talab etiladi.

Xorijiy, birinchi navbatda, to'g'ridan-to'g'ri xususiy investitsiyalarni jalb qilish, buning uchun zarur investitsion muhit hamda xorijiy investorlar uchun kafolatlarni yaratish – milliy iqtisodiyotning barqarorligi, mulk huquqi kafolatlari,

ayniqsa savdo aloqalarida tovar va xizmatlarning qonun bilan himoyalanihini nazarda tutadi.

Ta'kidlash joiz, intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8 fevraldagi "Intellektual mulk sohasida davlat boshqaruvini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan Intellektual mulk agentligi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tizimiga o'tkazildi. Mazkur o'tkazilgan islohotlardan ko'zlangan maqsadlar qatorida intellektual mulk sohasida huquqbuzarliklarni bartaraf etish maqsadida idoralararo mustahkam hamkorlikni kuchaytirish hamda sohada davlat xizmatlari ko'rsatish tizimini samaradorligini oshirishni ham sanab o'tish lozim.

O'z navbatida O'zbekistonda ham intellektual mulk sohasida keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, intellektual mulk ob'ektlari himoyasini ta'minlash, mualliflik va turdosh huquqlar sohasidagi xalqaro shartnoma va bitimlarni ratifikasiya qilinishi kabi muhim ishlarni sanab o'tish mumkin.

Albatta agentlik oldida keng jamoatchilik o'rtasida intellektual mulkka hurmat ruhini shakllantirish, intellektual mulk ob'ektlarining ekspertizasi jarayonini soddalashtirish va avtomatlashtirish tizimlarini keng joriy etish kabi muhim vazifalar ham turibdi. Ayniqsa, bugun O'zbekiston tomonidan Jahon savdo tashkilotiga a'zo bo'lib kirish jarayonida ushbu vazifalar ahamiyati ortishi tabiiydir.

Shuni alohida e'tiborga olish lozimki, intellektual mulk milliy strategiyasini yaratishda sohaga doir boshqa turli vazirlik va idoralarning ham alohida o'rni bor. Seminar ishtirokchilari aholida intellektual mulkka hurmat ruhini shakllantirish, intellektual mulk himoyasi mexanizmlarini rivojlantirish, soha yutuqlarini amaliyotga tatbiq etish bo'yicha tajriba almashishdi hamda intellektual mulk milliy strategiyasini hamkorlikda ishlab chiqishga kelishib olishdi.

Axborot xizmati

<http://ima.uz/uz/information/info/news/1446/>

Sanoat mulki himoyasi: O'zbekiston va Belarus Respublikalari idoralari o'rtasida hamkorlik

Seminar doirasida O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi rahbariyati Belarus Respublikasi Intellektual mulk milliy markazi bosh direktorining o'rinbosari Aleksey Kurman bilan ikki tomonlama uchrashuv o'tkazdi. Uchrashuv davomida tomonlar intellektual mulk huquqlarini himoya qilish sohasida idoralararo hamkorlikni kuchaytirish muhimligini ta'kidladilar. Uchrashuv yakunlariga ko'ra Belarus Respublikasi Intellektual mulk milliy markazi va Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi o'rtasida sanoat mulki himoyasi sohasida o'zaro anglashuv memorandumini imzolash to'g'risida kelishuvga erishildi.

Axborot xizmati

Janubiy Koreya tajribasi sohada qanday qulaylik yaratadi?

Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligida Janubiy Koreya Intellektual mulk idorasi va Janubiy Koreya Patent axboroti instituti vakillari bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Uchrashuvni o'tkazishdan maqsad Intellektual mulk agentligi bilan KIMO-KPAI o'rtasida informatsion texnologiyalardan tizimda samarali foydalanish, intellektual mulk sohasini avtomatlashtirish bo'yicha loyiha tafsilotlarini muhokama qilishdan iborat.

Tadbirda Janubiy Koreya Intellektual mulk idorasining IT bo'yicha hamkorlik bo'limi boshlig'i Sunghun KANG 2013 yildan beri Paragvay, Chili, Misr, BAA kabi 15 ta davlat bilan IT sohasida uzviy hamkorlik olib borilayotgani, ayniqsa Paragvay davlati bilan qog'ozsiz tizimda ishlashga kelishilganini alohida qayd etdi.

Ayniqsa, Janubiy Koreya Intellektual mulk idorasi jahon reytingida 4-o'rinni egallashi uning katta tajriba va nufuzga egaligidan dalolat beradi.

Intellektual mulk ob'ektlarini ro'yxatdan o'tkazish uchun talabnomalarni qabul qilish, ekspertizadan o'tkazish va ro'yxatga olish jarayonlarini avtomatlashtirish bo'yicha Koreya intellektual mulk idorasining o'ziga xos tajribasi o'rganildi.

Intellektual mulk sohasida informatsion texnologiyalarni qo'llashning ahamiyatli jihati shundaki, bunda talabnoma to'ldiruvchi shaxs vaqtini tejaydi, turli ovorgarchilikka chek qo'yiladi. Ahamiyatlisi, tizim to'liq ishga tushirilishi ham jismoniy shaxslarga ham agentlik xodimlariga birday qulaylik tug'dirib, xizmat turi davomiyligi bilan ajralib turadi.

Yig'ilishda Adliya vazirligi huzuridagi Intellektual mulk agentligi direktor o'rinbosari Bahodir Sagdullayev koreyalik mutaxassislariga agentlik faoliyati, uning tarkibiy tuzilmasi haqida ma'lumot berdi. Ikki tomon intellektual mulk sohasini avtomatlashtirish loyihasi yuzasidan o'zaro fikr almashishdi.

Koreyalik mutaxassislar patent hujjat aylanish jarayonini optimallashtirish va avtomatlashtirish bo'yicha o'z maslahatlarini berdilar.

Agentlik axborot texnologiyalari bo'limi xodimlari koreyalik mutaxassislar bilan hamkorlikda intellektual mulk ob'ektlarini muhofaza qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etish bo'yicha hamkorlik qilishga kelishib olindi.

Axborot xizmati